



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 27-dekabr, №52 (3114)

*Yangi yiling qutlug' kelsin,  
ona diyor!*



Oppoq qorning yog'dusiga cho'mgan zamin,  
Jannatlarga qiyos o'lka yo'q sendayin.  
Ostonangda olamshumul omad ila  
Kirmoqlikka izn so'rар Yangi yiling.

Taxt atalmish davron kelar karvonida,  
Zafarlarning tug'rosi bor narvonida.  
O'zbekiston deb atalmish jo'mard elning  
Quyosh yanglig' baxti kular har onida.

Xalqim tinchlik ardog'iда kersin vigor,  
O'n ikki oy kulib boqsin nurli iqbol,  
Yangi yiling ulug' kelsin, ota makon,  
Yangi yiling qutlug' kelsin, ona diyor!

Zulfiya YUNUSOVA



**4-5** SADOQAT, BILIM VA  
JASORAT BIRLIGI

**9** YURT FIDOYILARNI  
UNUTMAYDI

**10-11** 19-O'ZBEK TOG'-OTLIQ  
DIVIZIYASI QO'MONDONI

**20** DAVRNING ENG KATTA  
EKOLOGIK MUAMMOSI



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**BIZ**  
HAQIMIZDA

@vatanparvar-bt@umail.uz  
t.me/mv\_vatanparvar\_uz

t.me/mudofaavazirligi  
facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi  
youtube.com/c/uzarmiya

# JAMOATCHILIK KENGASHIDA YIL YAKUNI

O'zbekiston Qurolli Kuchlari akademiyasida

Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2024-yil yakunlari hamda O'zbekiston Respublikasi

Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilar kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazishga bag'ishlangan yig'ilishi bo'lib o'tdi.



Unda mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari bo'yicha o'rinosari general-major Hamdam Qarshiyev, Mudofaa vazirligi Jamoatchilik kengashi

raisi Iqboljon Mirzaaliyev, kengash a'zolari, vazirlik mas'ullari, kengashning hududiy bo'lmalar a'zolari (onlayn) va harbiy xizmatchilar ishtirok etdi.



Kengash raisi 2024-yil davomida Jamoatchilik kengashi va uning hududiy bo'lmalar tomonidan amalga oshirilgan ishlar yakuniga oid tahlliy ma'ruza qildi. O'z navbatida, hududiy bo'lmalar rahbarlarining hisobotlari ham tinglandi.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil

Xalqimiz va milliy armiyamiz o'rtasidagi mustahkam ko'priq vazifasini o'tab kelayotgan Jamoatchilik kengashi faoliyatini yanada jonlantirish maqsadida kengash a'zolari hududiy kengashlarga biriktirildi.

Mudofaa va harbiy soha bo'yicha jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflarni o'rganish, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy-

etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilar kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish to'g'risida"gi farmoyish ijrosi yuzasidan Jamoatchilik kengashining vazifalari belgilab olindi.

Mudofaa vazirining o'rinosari o'tayotgan yilda harbiy qism hamda muassasalarda ma'naviyat va ma'rifat ishlari yo'nalishida davlatimiz rahbarining ko'rsatmalar

huquqiy jihatdan himoya qilish, harbiy xizmatdan rezerv (zaxira) ga bo'shatilgan fuqarolarning ijtimoiy va professional moslashuvi hamda bandligi bilan bog'liq masalalarni hal etish, harbiylar oilalarini qo'llab-quvvatlash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik, Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash kabi masalalar borasida taklif va tavsiyalar eshitildi.



bilan salmoqli ishlar amalga oshirilayotgani haqida so'z yuritib, bu boroda, xususan harbiy xizmatchilar va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishiga katta hissa qo'shayotgan Jamoatchilik kengashi a'zolariga minnatdorligini bildirdi.

Yig'ilish so'ngida Jamoatchilik kengashining 2025-yil davomida belgilangan vazifalar bo'yicha faoliyat ish rejasi uchun taklif va tavsiyalar asosida tegishli qaror qabul qilindi.

Furqat ERGASHEV

**Muvofiqlashtiruvchi kengash**

# SARHISOB



Bosh prokuror o'rribbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori B. Kudratxodjayev raisligida muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishi o'tkazildi.

Videokonferens-aloha tarzida o'tgan muloqotda harbiy prokuratura organlari xodimlari, Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlar va idoralarning vakillari hamda mas'ul ofitserlari ishtirot etdi.

Kun tartibida Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlar va idoralarda joriy yilning o'tgan davrida qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylarni mustahkamlash, huquq-tartibot ahvoli, huquqbazarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni ko'rib chiqildi.

Joriy yil 12-yanvarda Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida belgilab berilgan topshiriq va vazifalar ijrosi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijalariga alohida urg'u berildi.

Muhokamalarda, shuningdek harbiy xizmatchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarish yo'nalishlaridagi chora-tadbirlar sarhisob qilindi.



Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini amalda to'liq ta'minlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlar va bu borada hamkorlikdagi tadbirlar bo'yicha aniq tavsiyalar bildirildi.

Energetika xavfsizligi, qish mavsumini betalafot o'tkazish, "Yashil makon" umummilliy harakati masalalari ham yig'ilganlarning diqqat markazida bo'lди.

Yakunda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Shuningdek, huquqbazarliklarning oldini olishda, huquqiy targ'ibot-profilaktika va harbiy-vatanparvarlik ishlarida faol ishtirot etgan harbiy qism va muassasalar arxbarlariga tashakkurnomalar topshirildi.

**Adliya polkovnigi  
Dilmurod HAMROEV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Harbiy prokuraturasi bo'lim boshlig'i**

**Islohot**

## YANGI BINO FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Prezidentimiz tomonidan sudsining chinakam mustaqilligini ta'minlash, odil sudlovning amalga oshirilishiga imkon yaratish, tashrif buyuruvchilar hamda sud protsesslarining barcha ishtirokchilari uchun zamonaviy, har tomonlama qulay sharoitlar yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Nukus harbiy sudi binosining tantanali ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi Baxtiyor Islomov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi Amanbay Orinbayev, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi raisi Paraxat Aytniyazov, huquqni muhofaza etish organlari hamda kuch tuzilmalari vakillari, keng jamoatchilik ishtirot etdi.

So'zga chiqqanlar mamlakatimizning barcha hududlarida olib borilayotgan bonyodkorlik va obodonlashtirish

ishlari orqali xalqimiz farovonligi ta'minlanayotgani, yurtdoshlarimizga eng zamonaviy sharoitlar yaratilayotganini ta'kidladi. Oxirgi yillarda birgina Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zida sudlar uchun 5 ta yangi bino qurilgani, 2 ta binoning rekonstruksiya qilingani bu yo'nalishga alohida e'tibor bo'layotganidan dalolat beradi.

Nukus harbiy sudi qariyb yarim hektar yer maydoniga ega bo'lib, bu yerda sudning ma'muriy binosi, fuqarolarni qabul qilish binosi hamda alohida

gozonxonasi bunyod etilgan. Zamonaviy dizayn va barcha qulayliklarga ega bo'lgan binoda 50 o'rinni sud zali, sud raisi, sudyalar, advokatlar, prokurorlar xonalari, tibbiyot punkti, kutubxona, 7 ta xizmat xonasi, suylanuvchilarni saqlash joyi hamda 8 ta sanitari tizim yaratilgan.

E'tiborlisi, sudning ochiqligi, shaffofligini ta'minlash, eng muhimi, fuqarolarga qo'shimcha qulayliklar yaratish uchun mazkur sud binosi videokonferens-aloha tizimi, audiofiksatsiya, infokiosk, korporativ tarmoq kabi eng zamonaviy

axborot-telekommunikatsiya vositalari bilan jihozlangan.

Binoning tantanali ochilish marosimidan so'ng mehmonlar bu yerda yaratilgan qulay sharoit va imkoniyatlardan tanishib, inson huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yuksaltirish yo'lida Nukus harbiy sudi jamoasiga ulkan zafarlar tilab qoldi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**

**"Yosh harbiylar forumi"**

Bugungi yoshlari – millatimizning kelajagi, davlatning tayanchi va taraqqiyotining asosiy kuchi sanaladi. Ularning ma'naviy boyligi va intellektual salohiyati yuksak bo'lsa, jamiyatda farovonlik, yurtda tinchlik va barqarorlik ta'minlanadi.

Shuning uchun ham bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhidha tarbiyalash, ularning zamonaviy bilimlar bilan qurollanishi, ma'naviy dunyosini boyitish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida **"Yoshlarimiz ma'naviyati va intellektual salohiyatini oshirish, ularni vatanparvarlik ruhidha tarbiyalashning dolzab masalalari"** mavzusida tashkil etilgan "Yosh harbiylar forumi" – faqtgina yoshlarning harbiy bilim va ko'nikmalarini oshirish emas, balki ularning Vatanga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish, yurtimizning tinchligi va xavfsizligini ta'minlashga hissa qo'shadigan barkamol shaxslar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi, desak, adashmagan bo'lamiz.

Forum yosh harbiy xizmatchilarning harbiy sohaga oid innovatsion g'oya va ishlanmalari ko'rgazmasi, yosh harbiy adib va shoirlarning kitoblari taqdimoti, "Yoshlar kutubxonasi" hamda "Mard askarga sovg'a" rukni ostida nashr etilgan badiiy adabiyotlar ko'rgazmasi bilan boshlandi.

Unda O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri general-major Shuxrat Xalmuxamedov, O'zbekiston yoshlari ittifoqi markaziy kengashi raisi Xayrulla Sattorov, Yoshlar ishlari agentligi vakillari, Mudofaa vazirligi harbiy qism va muassasalaridagi Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchilari hamda xalqaro sport musobaqalari g'oliblari, yosh harbiy xizmatchilar, "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a'zolari, Juhon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabalari va muddatli harbiy xizmatchilar ishtirok etdi.

Mudofaa vaziri "Yosh harbiylar forumi" ishtirokchilariga murojaat yo'llab, jumladan shunday dedi:

## SADOQAT, BILIM



– Yurtimizda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan keng foydalaniib, ulug' ajdodlarimizga munosib ravishda vatanparvarlik tuyg'usi va ulkan shijoat bilan olg'a intiling! Iroda va mahoratingizni ko'rsating, hech qachon ortga chekinmang!

Sinov va qiyinchiliklarni mardonavor yengib, bor bilim va salohiyatingizni, kuch

va g'ayratingizni Vatanimiz va xalqimiz

tinchligini ta'minlashga safarbar eting!

Ishonchim komil, bugungi forumdagi taklif va fikr-mulohazalar kelgusida milliy armiyamiz islohotiga, yosh harbiylarimizni yangi marralar sari yo'naltirishga hissa qo'shadi.

Shuningdek, forum davomida "Yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari", "Mudofaa vazirligi tomonidan otaliqqa olingan yoshlari bilan amalga oshirilgan ishlar tahlili", "Yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhidha tarbiyalashda Qurolli Kuchlar faxriyalarining o'rni va roli" kabi mavzularda ma'ruzalar tinglandi.

Bundan tashqari, mutaxassisligi bo'yicha yuqori cho'qqilarni zabt etgan, muvaffaqiyatga erishgan harbiy xizmatchi va sportchilar so'zga chiqib, o'zlarini erishayotgan yutuqlar ularga ko'rsatilayotgan e'tibor samarasi ekanini alohida faxr bilan tilga oldi.





# VA JASORAT BIRLIGI



- Ushbu foruming tashkil etilishi biz, yoshlarga ko'plab imkoniyatlar eshigini ochdi, - deydi forum ishtirokchisi kursant Temurmalik Abduvahobov. - Vazirimiz bilan bo'lgan suhbatda o'zimizni qiziqtirgan savollarga javob oldik, fikr almashdik, takliflarimizni berdik. Shuningdek, kapitan Ruslan Nurudinov bilan o'tgan muloqot ham qiziqarli bo'ldi. Ruslan Nurudinov yaqinda Bahraynda o'tkazilgan jahon championatida g'alaba qozonib, yana bir karra dunyoning yangi rekordini o'rnatdi. O'zbek sportida og'ir atletika turida uch karra jahon championi degan nomga sazovor bo'ldi. Umumiy hisobda qayd etgan 424 kilogrammli tosh ko'tarish natijasini yaqin orada hech bir sportchi boshqa yangilay olmasa kerak, deb o'yayman. Umuman olganda, bu sportchi bilan kechgan suhbat biz uchun o'ziga xos mahorat darsi bo'ldi. Kelgusida biz ham yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalangan holda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining rivojlanishiga o'z hissamizni qo'shamiz.

- "Yosh harbiylar forumi"da harbiy xizmatchilar tomonidan ishlangan ko'rgazmalar bilan tanishib chiqdik, - deydi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi Abbosbek Qayumov. - Bizga juda ham yoqdi. Bundan ko'rinish turibdiki, yosh harbiy

xizmatchilar zamon bilan hamnafas bo'lishga va harbiy ilmlarini oshirishga, yangiliklar yaratishga intilyapti. Harbiy xizmatchilarimizning shijoati va teran fikrashiga havas qildik.

Ha, bugun yosh harbiy xizmatchilarimiz yangi kashfiyot yaratishda ham faol bo'lmoxda. Jumladan, Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti kafedrasи sikel boshlig'i kapitan Ashraf Axunov o'rnatilgan minalarini uchuvchisiz uchish apparati yordamida aniqlash bo'yicha ilmiy loyihasini ishlab chiqqan. Chirchiq oly tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti yosh olimlar kengashi raisi kapitan Zayniddin Odashov ham elektromagnit impuls yordamida uzoq masofadan dronlarni zararszlantiruvchi qurilmani yaratdi.

Shuningdek, leytenant Dostonbek Abduxoliqov o'q-dorilarni jangovar lentalarga avtomatik o'qlash moslamasini ixtiro qildi. Hozirda mazkur ilg'or tajribalarni qo'shinlarda qo'llash bo'yicha sinovlar o'tkazilmoxda.

Forumda kursant Shohimardon Ergashev o'zining o'q-dorilarni lentalarga joylash avtomatik mexanizmi va olib yuruvchi quyosh paneli ishlanmasi bilan ishtirot etdi. Bu haqda u shunday deydi:

- Ma'lumki, hozirgi jangovar sharoitlarda o'q-dorilarni lentalarga joylash juda ham ko'p vaqtini talab etyapti. Bunga yechim sifatida shunday bir innovatsiya qildimki, bu avtomatik o'qlash mexanizmi sanaladi. U yordamida biz bir daqiqada 200 tagacha bo'lgan 7,62 millimetri patronlarni lentaga joylay olamiz. Ikkinci loyihamiz olib yuruvchi quyosh paneli deb nomlanadi. Ma'lumki, harbiy xizmatchilar amaliy mashg'ulotlar sabab poligonlarda kamida 3-5 kun yuradi. Shu davr oralig'ida aloqa vositalarini zaryadlashda muammo tug'ilishi mumkin. Biz shunga yechim sifatida mana shu qurilmani yaratganmiz. Bu qurilma yordamida aloqa vositalari va 12 voltga mo'ljalangan elektron texnikalarni zaryadlash ishlarini amalga oshiramiz. Buning afzalligi – yengilligi va olib yurish qulayligida.

Forum yakunida Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi harbiy xizmatchilarining "Jadidlar nomi mangu barhayot" nomli sahnalashtirilgan badiiy chiqishlari namoyish etildi.

**Ro'ziqul OCHILOV,  
"Vatanparvar"**



Ko'pchilik bolalikdan uchuvchi bo'lishni orzu qiladi. Biroq unga erishish oson emas. Bu sharaflı kasbga munosib bo'lish esa hammaga ham nasib qilavermaydi. Buning uchun ko'plab chig'irqlardan o'tish kerak. Xuddi shunday, harbiy uchuvchi bo'lish uchun ham uzoq vaqt tayyorgarlik talab etiladi.



## HARBIY AVIATSİYA INSTITUTI:

...Tonggi soat 5:00. Xonobod aerodromi... Guruhimiz bilan manzilga yetib borganimizda kursantlar uchish oldi tayyorgarliklarini o'tkazayotgan edi. Hali maydonga quyosh nuri tushmagan. Shunga qaramasdan, samolyotlarga yonilg'i quyish ishlari amalga oshirilgan va parvozga shay holatga keltirib bo'lingan. Tajribali uchuvchilar kursantlar va yosh harbiy uchuvchilarni yo'rqnoma bilan tanishtirmoqda. Yo'rjqilar esa harbiy uchoqni samoga ko'tarish va uni qo'ndirish, parvozni amalga oshirishda ahamiyat berilishi lozim bo'lgan holatlarga urg'u berib, yerdagi mashg'ulotlarni o'tkazmoqda.

- Bugun tayyorgarlik jarayoni, - deydi kursant G'aybullo Dadajonov. - Ko'rib turganingizdek qarshingizda L-39 "Albatros" harbiy o'quv samolyoti. Reaktiv dvigateli bitta bo'lishiga qaramay, quvvati ancha baland. Maksimal tezligi soatiga 900 km. 12 km balandlikka ko'tarila oladi. Odatda fuqarolik aviatsiyasida Toshkentdan Xonobodgacha bo'lgan

masofa bir yarim soatda bosib o'tilsa, bu samolyotda 40 daqiqada yetib boriladi. Yonilg'isi 2,5 soatga yetadi. Balandlikda kislород kamliги uchun kislород ballonidan nafas olamiz. Uchishdan oldin himoya shlemini kiyamiz, bu himoya vazifasini o'tash bilan birga radioaloqani ham ta'minlaydi.

Malakali mutaxassislar tomonidan tavsiyalar to'lagicha berilgandan so'ng mashg'ulot rahbari amaliy uchishlarga ruxsat berdi. Birin-kechin harbiy uchoqlar samoga ko'tarilayotgan palla... Yerdagi taassurotlarimiz esa samodagi uchuvchilarga hayrat va havasdan iborat edi. Osmonga boqar ekanmiz, dvigatellarning gumburlagan sasi asta-sekin kamayib, uchoqlar qisqa soniyalar ichida ko'zdan g'oyib bo'la boshladi.

Samo lochinlarining yerga qo'nishiga hali ancha vaqt bor edi. Fursatni boy bermaslik uchun aerodrom hududidagi samolyot va vertolyot trenajyorlari bilan tanishdik. Trenajyorlar Mi-8MT, Mi-24 vertolyotlari va harbiy samolyotlarida

dastlabki uchish ko'nikmalarini o'rganish uchun mo'ljallangan. Ushbu majmuaviy trenajyorlar Ruminiya davlatining xususiy kompaniyasida ishlab chiqilgan bo'lib, unda harbiy uchuvchilar, aviatsiya borti texniklari hafta mobaynida mashg'ulotlarini o'tkazadi hamda parvozga oid tajribalarini mustahkamlab boradi. Podpolkovnik Abdurasul Sobitovning ta'kidlashicha, ushbu trenajyor majmuasi ko'kda parvoz etuvchi samo lochinlarining kasbiy mahoratini oshiribgina qolmasdan, turli topshiriq va vazifalar o'z o'rniда sifatli ado etilishini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Trenajyor majmuasini ko'zdan kechirar ekanmiz, uchuvchilarning samodagi parvozlar hali-hanuz davom etayotgandi.

**Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi harbiy aviatsiya instituti faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida shaharga yo'1 oldik.**

Ushbu ta'lim muassasasi 1994-yilda (Jizzax olyi harbiy aviatsiya bilim yurti nomi bilan) tashkil etilgan.

Keyinchalik davlatimiz rahbari 2018-yilda Qarshi tumanidagi Xonobod harbiy aerodromida bo'lganida harbiy uchuvchilar tayyorlashda ushbu aerodrom imkoniyatlaridan samarali foydalaniш bo'yicha takliflar bildirgan edi. Shu asosda olyi harbiy aviatsiya bilim yurti 2019-yilda Qarshi shahriga ko'chirildi. 2024-yil 17-yanvarda Prezidentimizning qarori asosida Harbiy aviatsiya bilim yurti "institut" nomini oldi.

- Yangi maqomni oqanimizdan so'ng ta'lim dargohimizda magistratura va doktorantura bosqichlarini ochish uchun imkoniyat yaratildi, - deydi polkovnik Hikmatulla Do'stmatov. - Shuningdek, ta'lim bosqichimiz boshqa oliygohlar singari 5 yillikdan 4 yillikka o'tkazildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqish hamda Mudofaa vazirligi Havo hujumidan mudofaa qo'shnulari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligiga malakali kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Avvalgi yillarda dargohimizda ilmiy pedagogik



## SAMO LOCHINLARINI TAYYORLOVCHI MASKAN

kadrlar tayyorlash imkoniyati cheklangan edi. Biroq institut maqomini oлganimizdan so'ng ushbu imkoniyatga ega bo'ldik. Ta'kidlash joiz, o'tgan yillard mobaynida ilmiy salohiyatimiz

**47 foizni** tashkil etgan bo'lsa, joriy yilga kelib esa bu ko'rsatkich **52.5 foizga** yetdi. Professor-o'qituvchilar hamda kursantlarni ilmiy faoliyatga yo'naltirish bo'yicha olib borilgan salmoqli ishlar samarasini o'laroq ta'lim maskanimizda bugungi kunda jami 2 nafar fan doktori, 3 nafar fan nomzodi va 11 nafar falsafa doktori (*PhD*) faoliyat olib bormoqda. Yakunlanayotgan yilda **3 nafar**

**pedagog falsafa doktori** (*PhD*) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishlarini himoya qildi. **13 nafar** **pedagog** o'z ilmiy tadqiqot ishini davom ettirmoqda.

Harbiy aviatsiya instituti o'quv hamda mashg'ulot binolari, zamonaviy trenajyorlar, uskunalar, ilg'or axborot texnologiyalari bilan to'liq jihozlangan. Bu kursantlarga Xonobod aerodromida harbiy havo kemalarini boshqarish va ularga

texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha mashg'ulotlar olib borish hamda bevosita o'quv poligonlarida ishtirok etish imkonini bermoqda. Parvozga tayyorgarlik markazi va raqamlashtirilgan elektron kutubxona, **4 ta mutaxassislik bo'yicha** o'quv laboratoriyalari, 2 ta trenajyor majmuasi hamda **1 ta o'quv-mashq aviatsiya markazi** harbiy uchuvchilarning professionallik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. **120 o'rinni** madaniyat markazi, **400 o'rinni** yotoqxona va oshxonasi, saf maydoni va sport shaharchasi, psixologik markaz kursantlar ixtiyorida.

– Markazimiz nafaqat harbiy xizmatchilar va kursantlar, balki Qurolli Kuchlar ishchi xizmatchilarining kasbiy faoliyatini samarali va xavfsiz bajarishda, shuningdek jismoniy va emotsiyonal ruhiy holatini barqaror saqlashda katta ahamiyatga ega, – deydi psixologik xizmat boshlig'i kapitan Nodirbek Ro'ziyev. – Bilamizki, har qanday parvozdan oldin uchuvchining psixologik holati a'lo bo'lishi lozim.

Chunki ulardag'i ruhiy barqarorlik parvozning muvaffaqiyatlari o'tishini ta'minlashga asos bo'ladi. Shuningdek, ulardag'i stress va emotsiyonal beqarorlik jismoniy holatga ham salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun ham markazimizda harbiy uchuvchi kursantlarning psixologik holatini saqlash va mustahkamlash uchun maxsus tayyorgarliklar, treninglar va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimlari ishlab chiqilgan. Bu nafaqat ularning ta'lim jarayonlariga, balki kelgusidagi professional ish faoliyatlarini samarali bajarishiga yordam beradi.

– Institutimizda tashkil etilgan axborot-resurs markazi bir vaqtning o'zida **60 dan ziyod** kitobxonga xizmat ko'rsata oladi, – deydi Ikromjon Hamidov. – Mazkur kutubxonamiz raqamli, badiiy hamda o'quv-metodik bo'limlardan tashkil topgan. Darsliklarimiz **9 ming**, badiiy adabiyotlarimiz **20 ming**, raqamli kutubxonamiga **60 mingdan ziyod** elektron adabiyot joylashtirilgan. Kitobxonlar uchun lokal hamda set tarmoqlari ham mavjud. Bu imkoniyatlar, o'z navbatida, kursantlarning mutaxassislik, dunyoviy hamda adabiy bilimlarni o'zlashtirib borishlari uchun sharoit yaratib beradi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, mazkur dargoh havo mudofaasini yangi pog'onaga ko'tarishga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Institutda xorij muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlari asosida tajriba tariqasida uchuvchisiz qurilmalar yig'ish ham yo'lga qo'yilmoqda.

– Bugungi kunda institutimizdagi ta'lim oluvchilarga harbiy havo kuchlari hamda umumqo'shin taktikasi fanidan mashg'ulotlar o'tkazib kelmoqdamagan, – deydi taktika va maxsus fanlar katta o'qituvchisi podpolkovnik Jamol Haydarov. – Dargohimizda dars sifatiga, metodik usullarga katta e'tibor qaratilgan. Shuningdek, xorijiy oliy ta'lim dargohlari natijalarini chuqur tahlil qilib, o'zimizga moslagan holda mashg'ulotlarni interfaol usulda o'tkazib, kursantlarning bilim darajasini yanada oshirishga urg'u berib kelmoqdamiz. Ishonamizki, institutimizda olib borilayotgan bu kabi yangiliklar sohaga yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlab berishda o'z samarasini ko'rsatadi.

**Sherzod EGAMBERDIYEV,**  
"Vatanparvar"

Xotira aziz, jasorat mangu

# OSMON KENGLIKLARIDA

## SARIOSIYO. 2000-YILNING AVGUST OYI...

Harbiy xizmatchilarga Surxondaryo viloyatining tog'li hududlarida Vatanimiz sarhadlariga bostirib kirdigan terrorchi to'dalarga qarshi kurashda dushman joylashgan bazalarni qidirib topish va ularga havodan turib zarba berish orqali yakson qilish bo'yicha jangovar vazifa beriladi. Mi-8 vertolyoti ekipajiga navbatdagi jangovar vazifa yuklatiladi. Katta leytenant Shermuhammad Ashirov mamlakat mustaqilligi va el tinchligini saqlashni muqaddas burch deb bilib, bu topshiriqni bajarishga jiddiy kirishdi. Ekipaj tog'li hududdagi qiyin sharotda jangarilar guruhini aniqlab, ularga katta talafot yetkazdi. Jang vaqtida vertolyotga jiddiy shikast yetadi. Boshqaruvi qiyinlashgan vertolyotni qo'ndirish vaqtida o'zbek lochini – Shermuhammad Ashirov qahramonlarcha halok bo'ldi. Osmo – uning pok ruhini, yer – baquvvat tanini, yurtdoshlarimiz – mangu nomini bag'riga singdirdi...

## KOMIL INSONDAN KOMIL FARZANDLAR DUNYOGA KELADI



– Men Shermuhammadning otasi Ergash aka Ashirov bilan ko'p yillar yelkama-yelka ishlaganman, – deydi "Xalqobod" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Baxtiyor Sultonov. – Ergash aka oddiy o'qituvchi emas, haqiqiy tarbiyachi edi. U kishi faqat dars berish bilan cheklanib qolmay, yoshlarning tarbiyasiga ham mas'uliyat bilan yondashardi.

Shermuhammad shunday insonning ta'lif-tarbiyasini olib voyaga yetdi. Biz uning bolalikdan otasining yaxshi xislatlarini meroz qilib olib, odobli va mas'uliyatlari inson bo'lib kamol topganining guvohi bo'ldik. Kichkinligidan uning qalbida yurtga muhabbat va sadoqat yuksak edi. Va o'sha muhabbat vaqtlar kelib uni el uchun o'z jonini fido qilishdek jasoratga yetakladi...

Bugun bizning mahallamizda o'nlab Shermuhammadlar o'sib-ulg'aymoqda. E'tiborli tomoni, ota-onalar aynan Shermuhammad Ashirovga havas qilib farzandlariga shu ismni qo'ygan. Bu oddiy tanlov emas, balki yurt uchun jonini ayamaydigan qahramonning nomi abadiy yashashining dalilidir. Shermuhammadning nomini mahallamizda istiqomat qilayotgan katta-yu kichik hurmat va ehtirom bilan yodga oladi. Ha, qahramon yigitning xotirasi va jasorati asrlar osha boqiy qolishiga ishonamiz.



Samo bag'rida qanot yozgan, yurtimiz orzu-umidlarini baland parvozlar ila osmonlarga olib chiqqan harbiy uchuvchilarni qahramonlik va jasorat ramzi, desak, yanglishmaymiz. Ular uchun falak faqatgina parvozlar makoni emas, balki yurak bilan qo'riqlanadigan muqaddas maydon. Katta leytenant Shermuhammad Ashirov ham o'z burchiga sadoqatli bo'lgan harbiy uchuvchi edi. Uning qisqa umri – mardligi, o'chmas jasorati shu yurda kamol topayotgan yosh avlodga ibrat namunasi sanaladi.

## QALBIDA CHEKSIZ MEHR VA ADOLATGA ISHTIYOQ BOR EDI



– 28-umumta'lum mabtabada 34 yildan buyon matematika fanidan dars berib kelaman, – deydi Zamira Madiyorova. – Uzoq yillik pedagogik faoliyatim davomida yuzlab o'quvchilarga saboq berdim. Ular orasida Shermuhammad Ashirov alohida o'rinn tutadi. U shunchalik o'ziga xos o'quvchi ediki, uning har bir harakatida egzilik mujassam edi.

Shermuhammad vazifalarni o'z vaqtida bajaribgina qolmay, balki ularni teran tushunar, masalalarga yangicha yondashardi. Darsdag'i faolligi bilan o'quvchilar orasida namuna bo'lgandi. O'qituvchilarning mehrini qozongandi. Uning fe'l'i og'ir-bosiq, vazmin, lekin qalbida cheksiz mehr va adolatga ishtyoq bor edi. Maqsadiga yetishish uchun astoydil mehnat qilar, qiyinchilikdan cho'chimay, dadil qadam tashlardi.

Shermuhammad haqiqiy vatanparvar edi. U yolg'onni ko'tara olmasdi, haqiqat uchun kurashardi, adolatga intilardi. Bir kuni darsdan keyin menga aytgan gapi hali ham yodimdan chiqmaydi: "Ustoz, haqiqatni himoya qilish, adolat uchun jon kuydirish – hammaning burchi". O'shanda u hali kichkina edi. Lekin men uning murg'ak qalbida katta jasorat borligini his qilganman va bundan quvonganman.

Bugun Shermuhammadning hayoti va qahramonligini eslab, uning qalbidagi ulug' niyatlarini anglab turibman. U o'ziga va yurtiga sodiq farzand bo'lib yetishdi. Shunday o'quvchiga saboq berish sharaf. Uning xotirasi xalqimiz qalbida jasorat timsoliga aylangan.

# QOLGAN YURAK

## SAMIMIY ORZU ULKAN JASORATGA AYLANDI



– Hozirgidek yodimda, Shermuhammad og'ir, vazmin va qat'iyatlari yigit edi, – deydi uning sinfdoshi Nargiza Meliboyeva. – Yana o'ziga xos fazilati – birso'zliligi edi. Shermuhammadning fe'l-atvorida tug'ma vatanparvarlik mavjud edi. U tengdoshlarimizni doimo jamoa sifatida birlashtirardi, boshchilik qilib adolatli yo'l ko'satardi. Bog'cha davrida uchuvchilarning bosh kiyimini kiyib olib, hammani yig'ib, shunday degani yodimda: "Men katta bo'lsam uchuvchi bo'laman! Osmonda yurtimizni qo'riqlayman!" Bu uning shunchaki bolalik orzusi emas, balki yuragida yotgan yuksak maqsadning ilk mujdasi ekanini hozir tushunib turibman.

Maktab davrida esa bu ishtiyobi yanada mustahkamlanib, maqsadga aylandi. Faqatgina xayol qilmingunga yetishish uchun bor kuchini sarfladi. Ha, u o'z maslagiga erishdi. Bolalikdagi sodda va samimiy do'stimiz vaqtlar kelib, shu zamin uchun o'z jonini fido qildi...

Biz u bilan faxlanamiz!

## SHERMUHAMMAD BO'LISH QIYIN!



– Shermuhammad aka bizdan ikki sinf yuqorida o'qirdi, – deydi Feruza Yunusova. – U kishining qiz bolalarga bo'lgan hurmati baland edi. Har bir harakatidan tarbiyali inson ekani bilinib turardi. Yodimizda, maktabda yosh bolalar orasida ba'zan hazil-mutoyiba chegaradan oshib ketgan paytlarda Shermuhammad aka hammani hurmatga chaqirib, davradagi samimiy muhitni saqlab qolardi. U qo'pollikka mutlaqo toqat qilmasdi. Atrofidagilarga ham shu fazilatlarni o'rgatishga harakat qilar, samimiylikni o'zining hayot qoidasi deb bilardi. Qizlar bilan suhbatlashganda yoki ularga yordam kerak bo'lgan paytlarda har doim axloq me'yorlariga rioya qilar va boshqalardan ham shuni talab qilardi.

U kishining jasorati haqida gapirish oson. Biroq Shermuhammad akadek bo'lish, sharafli hayot kechirish har kimning ham qo'lidan kelmaydi.

So'nggi so'z o'rnida aytadigan bo'lsak, Shermuhammad Ashirov uchun harbiy xizmat – faqat burch emas, balki ko'nglidan chuqur o'rinn olgan mas'uliyat edi. Uchuvchilik nafaqat kasb, balki tug'ilgan yurtiga bo'lgan sodiqlik va hurmatning boshidan oxirigacha izlari bo'lgan yo'l edi. Bugun katta leytenant Shermuhammad Ashirovni yod etganlarga u ko'kdagi porloq yulduz misol yorqin ilhom va jasorat manbasiga aylanadi.

**Ro'ziqul OCHILOV,  
"Vatanparvar"**

Qahramonlar nomi barhayot

# YURT FIDOVYLARNI



# UNUTMAYDI

Ortida xalqi, Vatani va millati turganligini qalban his eta olganlargina kindik qoni to'kilgan zamini uchun Nariman, Shermuhammad, Ulug'bek, Sayyor, Elomon, Mashrab, Alisher singari ko'ksini qalqon qila oladi. Garchi hozir ular oramizda bo'limasa-da, ruhi, jasorati va mardligi bilan yurtimizni mangu qo'riqlaydi. Ular tomonidan ko'rsatilgan jasorat namunasi asrlar davomida kelajak avlodni yangi-yangi qahramonliklar sari boshlab boradi va tinchligimiz mayog'i sifatida o'chmas bo'lib qoladi.

2000-yil avgust oyida mustaqil O'zbekiston davlat tuzumiga ola ko'z bilan qaragan bir guruh kimsalar Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarida terrorchilik harakatlarini amalga oshirdi. Chunki mamlakatimiz hududiga kalamush singari suqilib kirgan o'sha g'alamislar milliy armiyatining mudofaa qudrati qanday ekanligiga baho berishdan yiroq edi. Shuning uchun g'arazgo'yllarning niyati qisqa muddat ichida yo'qqa chiqarildi. Ming afsuski, janglarda bir qator yigitlarimiz yurt tinchligi yo'lida halok bo'ldi. Harbiy uchuvchi katta leytenant Nariman Abkelyamov ulardan biri edi.

Qashqadaryo viloyati Shahrishabz shahrida tug'ilib o'sgan Nariman Rossiya Federatsiyasining Viborg shahridagi fuqaro aviatsiyasi bilim yurtida tahlis olishiga qaramay, bolalikdagi orzusi – harbiy uchuvchi bo'lish uchun tinmay o'qidi, izlandi. 1991-yili bilim yurtini muvaffaqiyatlarga tugatib yurtimizga qaytdi. Xizmat faoliyatini Qo'qon aeroportida bort-texnik lavozimida boshladi. 1998–2000-yillar davomida Chirchiqdagi harbiy qismida vertolyot eskdriyasi bort-teknigi sifatida harbiy xizmatini davom ettirdi. Sariosiyo va Uzun voqealarida dushmanga havodan zarba berish jarayonida jasoratini namoyish qildi. Ammo jangovar topshiriqni bajarish chog'ida g'animlar tomonidan otilgan o'q vertolyotning dvigateliga shikast yetkazdi. Boshqaruvni yo'qtgan vertolyotni yerga qo'ndirish

paytida Nariman Abkelyamov qattiq yaralandi. Uning xizmatdosh do'stlari esa qahramonlarcha halok bo'ldi. Og'ir yaranlangan Nariman o'lim bilan yuzma-yuz kurashdi va 4 oydan keyin gospitalda vafot etdi. O'limidan keyin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvoqiq, "Jasorat" medali bilan taqdirlandi.

Sariosiyo va Uzundagi jangovar topshiriqni bajarishga jo'natilgan Vatan himoyachilarining barchasi yurt tinchligi uchun o'limga tik boqa oladigan, tomirida qoni qaynab turgan yigitlardan tashkil topgandi. Katta leytenant Nariman Abkelyamovning Luiza bilan turmush qurganiga hali ikki yil ham bo'lmagan, farzandi Ayder esa yetti oylik chaqaloq edi. Shunga qaramay, Nariman yurt himoyasiga otlandi. Chunki o'shanda u ortida xalqi, Vatani va oilasi, murg'ak farzandi kelajagi turganligini yurakdan his etgandi. U bilan bir yostiqqa bosh qo'yan Luiza bilan "O'g'limizni ehtiyyot qil.." deya qisqagina xayrashganda, eng yaqin insonlaridan biriga yuragida kechgan hislarni aytgisi kelgan bo'lsa, ajab emas. Lekin aytmadni. Ayta olmasdi ham. Negaki Nosir aka va Jevriye opa farzandlarini shu qadar kamtar tarbiyalagandiki, Nariman qilgan ishi, qabul qilgan qarori bilan atrofdagilarga maqtanishni yoqtirmasdi.

Og'ir yaralangan turmush o'rtog'ining gospitalda ekanidan xabar topgan Luiza Nariman bilan birga nafas oldi. Vafot etganida esa bir o'lib tirildi. Ayol ayriliq azobiga qanday davo borligini

bilmasdi. Bu davo – farzandi Ayder edi. Buni keyinchalik anglib yetdi. Bu orada Luiza turmush o'rtog'idek Vatan himoyachisi bo'lishga qaror qilib, egniga harbiy libos kiydi. Mana, oradan salkam 25 yil vaqt o'tdi. Ayder onasi va buvisidan go'zal tarbiya oldi. Otasidek bosiq, Vatanga sadoqatli yigit bo'lib ulg'aydi. U hozirda Toshkent davlat transport universiteti mashinasozlik texnologiyasini avtomatlashtirish fakulteti 5-bosqich sirtqi bo'lim talabasi. Chirchiqdagi zavodlardan birida ishlaydi. Ishi va o'qishidan tashqari yog'och o'ymakorligi bilan shug'ullanadi. Ayder garchi otasining yo'lidan borib, harbiy uchuvchilikni tanlamagan bo'lsa-da, aviatsiya sohasidan yiroq emas. O'ymakorlik borasidagi ishlarining namunalari "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasidan, Chirchiqdagi harbiy qism aviatsiya muzeyidan joy olgan. U yog'ochdan yasagan vertolyot va samolyotlarni ko'rganlar Ayderni konstruktur deb o'yashi tabiiy. Haqiqatan ham ko'zni qovontiradigan qo'l mehnati.

Joriy yilning 20-dekabr kuni Nariman Abkelyamov xizmat burchini o'tagan harbiy qismda qahramonning xotira burchagi ochildi. Chunki u bundan roppa-rosa 20 yil avval, ya'n 2000-yil 20-dekabr kuni vafot etgandi. Xotira burchagini ochilish marosimida faxriylar, harbiy xizmatchilar, maktab o'quvchilar bilan birga oila a'zolari ham ishtirok etdi. Tadbirda so'zga chiqqanlar Vatan uchun jonini qurban qilgan yurt o'g'lonlarining jasoratini abadiylashtirish ezgu ish ekanligini ta'kidladilar. Bugungi tinch, osuda hayotimiz Nariman singari yigitlarning qoni va shirin joni evaziga qo'liga kiritilgani yana bir bor yodga olindi. Shundan so'ng xotira burchagi katta leytenant Nariman Abkelyamovning turmush o'rtog'i III darajali serjant Luiza Abkelyamova, marhumning farzandi Ayder va xizmatdoshi tomonidan davlatimiz madhiyasi sadolari ostida ochildi.

Marosimidan keyin tadbir qatnashchilari aviatsiya muzeyiga tashrif buyurdi. Maktab o'quvchilar mustaqil O'zbekiston harbiy aviatsiyasi tarixidan hikoya qiluvchi eksponatlar bilan yaqindan tanishar ekan, mamlakatimiz tinchligi yo'lida halok bo'lgan boshqa harbiy uchuvchilarni ham xotirlardi. Abkelyamovlar oilasi vakillari esa Narimanning neverasi bo'lmish 9 oylik Edem bilan esdalikka rasmiga tushdi. Turmush o'rtog'ining vafotidan keyin harbiy bo'lishga ahd qilgan Luiza Abkelyamova ko'rsatilgan e'tibor uchun barcha-barchaga minnatdorlik bildirdi.


Podpolkovnik Tursunboy JABBOROV, xizmatdoshi: – Nariman aka Surxondaryoga jangovar topshiriqni bajarish uchun jo'natilayotgan vaqtidan sal oldinroq harbiy qismiga bilim yurtini endigina tugatib kelgan yosh leyttenant edim. Garchi u inson bilan hayot yo'llim qisqa tutashuvdan iborat bo'lsa-da, Nariman akani hozirgacha birinchi ustozlarimdan biri deb kelaman. Harbiy qismimizda marhum katta leyttenant Nariman Abkelyamov xotira burchagini ochilishi muhim vogelik bo'ldi, desam, adashmayman. Bu tadbirda uning oila a'zolari, faxriylar, yosh harbiy xizmatchilar va maktab o'quvchilar taklif etilgani ayni muddao bo'ldi. Negaki davlatimiz tomonidan yurt fidoyilarining xotirasi abadiylashtirilishi har qanday tahsinga loyiq. Bu orgali qahramonlarimiz nomi uzoq yillar davomida unutilmaydi. Men esa yoshlarga, yurtdoshlarimga mana shunday tadbirda ustozim Nariman akaning jasorati haqida qayta-qayta hikoya qilib beraveraman.

Alfiya ISHTUGANOVA, qaynonasi: – Narimanni kuyovim emas, o'z o'g'limdek yaxshi ko'rardim. Chunki bunga ko'p sabablar bor. Luizaga uylanmasdan avval tez-tez mehmonga kelib, ba'ziba'zida biznikida tunab qolardi. O'shanda bir yonimda Luiza, ikkinchi yonimda Nariman bilan tong otguncha subbatlashib yotardik. Burchi, egnidagi harbiy libosi, bajarayotgan ishi u uchun muqaddas edi. Shuning uchun ishga kechikishni, komandirlaridan tanbeh olishni o'ziga or deb bilardi. Oиласида go'zal tarbiya olganligi uchun Vatanga cheksiz sadoqati har bir xatti-harakatida ko'zga tashlanardi. Shunchalik bosiq ediki, atrofidagilar bilan gaplashganda kimnidir xafa qilib qo'ymaslikka harakat qilayotgani yuzidan ko'rinib turardi.

Tan olish kerakki, har qanday qurolli to'qnashuv qurbonsiz bo'lmaydi. Sariosiyo va Uzun voqealarida o'nlab alp o'g'lonlardan ayrlidik. Ular dushmanga ko'ksini qalqon qilish barobarida dunyodagi hamma narsadan bebaho bugungi tinch-osuda hayotni o'z jonidan ustun qo'yan. Ona zamin uchun to'kilgan qon evaziga qo'liga kiritilgan bu osoyishtalik har qanday davlatning jamiyatdagi o'rnini uchun qanchalik mustahkam bo'lishini anglagan. Yurt fidoyilarini unutilmaydigan davlatda esa tinchlik abadiy bo'ladi.

**Asror RO'ZIBOYEV,  
"Vatanparvar"**

# MIRSAID



Mirsaid Shomirboyev 1901-yili Namangan shahrida savdogar oilasida dunyoga kelgan. Avval jadid mактабида o'qib, atroficha ilm oldi. 1918–1919-yillar tikuвchiga shogird tushib, hunar o'rgandi. Mirsaid 1920–1923-yillar Chustdagи o'z-o'zini himoyalash guruhiga kirib, "qizil militsiya" safida bo'ldi. 1924-yildan Qizil armiya xizmatiga kirdi. 1924–1927-yillar davomida Rizo Yoqubov direktor bo'lgan O'rta Osiyo milliy harbiy mактабида o'qidi. Mактабda Azamat Xudoyorxonov va yana bir-ikki kishini inobatga olmaganda, pedagogik jamoa deyarli ruslardan iborat edi. Mirsaid Shomirboyev o'zining jismonan baquvvatligi va abjirligi bilan ham kursantlar orasida ajralib turardi. U O'rta Osiyo harbiy mактabi hamda O'rta Osiyo harbiy okrugi harbiylari o'ttasida bo'lib o'tgan ot sporti va boshqa musobaqalarda sovrindorlar qatoridan o'rin olgan.

## SHOMIRBOYEV 19-o'zbek tog'-otliq diviziysi qo'mondoni

### 1927-YILDAN 1937-YILGACHA

Mirsaid 1927-yilda O'rta Osiyo milliy harbiy mактабini tamomlagach, 1-o'zbek otliq polki vzvod qo'mondoni etib tayinlandi. 1931-yilga qadar o'zbek otliq polki mактabi vzvod qo'mondoni sifatida faoliyat olib borgan Shomirboyev Sovet hokimiyati tomonidan xizmatdosh do'stlari kabi qurolli qarshilik harakatini bartaraf etishga qaratilgan harbiy jarayonlarda ishtirok etdi. Mirsaid Shomirboyev jismonan yaxshi chiniqqan hamda harbiy ish sirlarini puxta egallagan professional mutaxassis edi.

U 1927-yildan 1937-yilgacha VKP(b) a'zosi, 1937-yil 10-sentabrgacha 19-o'zbek tog'-otliq diviziysi 42-otliq polki mактabining rahbari bo'lgan. Ushbu polkda tayyorlangan kadrlar o'zining professionalligi, ot sportining murakkab elementlarini puxta o'zlashtirgani bilan O'rta Osiyo harbiy okrugida o'tkazilgan harbiy musobaqalarda doimo yuqori o'rinnlarni egallagan. Bundan

bilishimiz mumkinki, polk mактabida tayyorlangan kichik mutaxassislar ajdodlarimizdan qolgan chavandozlik an'analarni davom ettirish bilan birgalikda, zamonaviy otliq qo'shinlar sir-asrorlarini ham mukammal o'rganishgan.

### XUFYA HUZURIDAGI XIRGOYI

1937-yil 15-fevralda kapitan unvoni berilgan Mirsaid Shomirboyev davralarning guli edi. Harbiylar to'plangan yig'inlarda u dutor chertib, "Farhod va Shirin", "Gulsara" operalaridan ariyalarni baralla aytib, askarlarning ko'nglini ko'tara edi. 1935-yili Mirkomil Mirsharopov ishdan olinib, o'rniqa Selivanovning kelishi jamoada muammolarni yuzaga keltiradi. Harbiylar orasida turli nizolar urchiyi.

Bir gal Sodiq Yoqubov yana birorta qo'shiq aytig desa, Mirsaid oqko'ngillik bilan dutorida "Paxta ekkan boy bo'lar, bir tiyinga zor bo'lar, bolasi non so'rasha, topolmas, sharmisor bo'lar",

deb xirgoyi qiladi. Shu davrada ishtirok etayotgan bir xufya uning bu "xato"sin kerakli joyga yetkazadi. Shu kunlarda Mirsaid Shomirboyevning qo'l ostidagi oddiy askar Saidov ham Selivanovning tazyiqi ortidan arzimagan bahonalar bilan ishdan olingen edi. Saidov hurmat taxtasidagi Mirkomil Mirsharopovning surati yonida "... bu inson shu yerda bo'lganida bizni bunday xor qildirib qo'ymas edi. Mallaboylar o'zbekni hech qachon odam o'rniда ko'rmaydi. Bular jamoa fikri bilan hisoblashmadı. Endi xizmatda hech qanday ma'no qolmadı. Albatta, xohlagan bahonasini topib, hammamizni bitta-bitta yo'qotishga tushadi", deydi. Shu tariqa 19-o'zbek tog'-otliq diviziysining shakllanishida muhim o'rinn tutgan milliy zobitlardan Mirsaid Shomirboyev ham qatag'on ro'yxatidan o'rinn oladi.

### UKASI 10 YOSHDAN OSHGANDI

## 1937-yil

11-sentabr kuni 42-otliq polk mактabi rahbari Mirsaid Shomirboyevni qamoqqa olishga order beriladi. Uning shaxsiy anketasiga ko'ra, oila a'zolari sifatida turmush o'rtog'i Malika Abdujabborova va 41-otliq polk mактabi tarbiyalanuvchisi ukasi Dadaxonlarning nomlari keltirilgan.

Mirsaid Shomirboyev hibsga olingach, ko'p o'tmay, bir necha kishi kelib, endigina 10 yoshdan oshgan o'quvchi, bu vaqtida kasalligi tufayli uning uyida davolanayotgan Dadaxon Shomirboyevni ham olib ketadi. Eng dahshatlisi, Dadaxon Shomirboyevni bir necha kun och qoldirib, tinimsiz tahqirlab, jismoniy qiynoqlar va qo'rquvit bilan akasiga tuhmatlar bitilgan bir qancha qog'ozlarga imzo chektirib oladi.

### SO'ROQ VA HUKM

1937-yil 29-dekabrdan bo'lib o'tgan so'roq paytida Shomirboyev o'ziga qo'yilgan barcha ayb va ko'rsatmalarini rad etadi. 1938-yil 11-fevralda 19-o'zbek tog'-otliq diviziysining sobiq qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov bilan yuzlashtirilganda, u 1933-yilda Mirsaid Shomirboyevni diviziyyadagi milliy aksilinqilobiy tashkilotga jalb etgani haqida ko'rsatma bergan. Ammo Mirsharopovning bu ko'rsatmasi Shomirboyev tomonidan rad etilgan. Mirsaid Shomirboyev so'roqlar davomida o'ziga qo'yilgan

birorta ayblovni tan olmaydi. Biroq ukasi tomonidan qo'rqitib imzolatilgan qog'ozlar va bo'htonlar asosida uni O'zSSR JK 57-2, 64, 67-moddalari bilan ayplashadi.

Mash'um "uchlik" 1938-yil 10-oktabr kuni soat 9:35 dan 9:55 gacha Mirsaid Shomirboyev ishini ko'rib, uni otuvga hukm qiladi.

#### BESAMAR SHIKOYAT

1939-yil 13-mart kuni Dadaxon Shomirboyev O'zbekiston hukumati rahbariyatiga ariza bilan murojaat qiladi. Unda 1938-yil 12-sentabr kuni akasi Mirsaid Shomirboyevni qamoqqa olishgach, polk komissari Bolta Komilov kelib, uni chaqirgani va turli gaplar bilan unga qarshi ko'rsatma berishini so'rashgani, rozi bo'limgach, starshina Mirzaaliyev bilan uni ham olib ketishganini bayon qiladi. Shundan so'ng ularni tir vagoniga olib kirishgani va u yerda yanada dahshatliroq yolg'on ko'rsatmalar yozilgan qog'ozlarga imzo chekishini so'rashgani, yo'q desa uni urishgani, bir necha marta tir miltig'i bilan otib azoblashgani, ikki kun davomida och, suvsiz qoldirib qiyonoqqa solishganini yozadi.

Shundan so'ng uni NKVD xodimi Abramsunovning uyiga keltirishgan. U esa mast holda, go'yoki Mirsaidning uyida bir necha o'zbek harbiylari to'planib aksilinqilobi yig'in qilgani, unda Selivanovga suiqasd uyuşhtirish, Qizil armiyaga qarshi isyonni rejalashtirgani haqida yozib, imzolashini talab qiladi. Yuqoridagi bo'htonlar bitilgan qog'ozlarni qiynoq va qo'rquv ostida, faqat akasi bilan yuzlashtirishga va'da berishgani uchun imzolaganini, biroq amalda hech qanday yuzlashtirish bo'limgani, aksincha o'zlar yozgan bo'htonlardan akasini ayplashda foydalanishganini arizasida keltirib o'tadi. 1939-yil 29-noyabrda Toshkentda Dadaxon Shomirboyevning arizasi ko'rib chiqiladi. Biroq turli vajlar bilan avvalgi hukmni to'g'ri deb arizani e'tiborsiz qoldiradi.

#### ONANING ARIZASI HAM...

1940-yil 14-iyunda Namangan shahri, Ishchilar mahallasi, 38-uydan Mirsaid Shomirboyevning onasi To'xtaxon Ashirova Beriya nomiga ariza yo'llab, o'g'lining nohaq tuhmat va bo'htonlar asosida qamoqqa olingani, akasini aybdor qilish uchun hali voyaga yetmagan ukasi Dadaxondan foydalanishganini yozadi. Onaizorning yig'lab bitgan arizasi 1940-yil 5-oktabrda O'rta Osiyo harbiy okrugi (SAVO) prokuraturasi tomonidan ko'rilib, yana o'sha bahonalar bilan e'tiborsiz qoldiriladi.

#### STALIN VAFOTIDAN SO'NG

Biroq Stalin vafotidan so'ng yuzaga kelgan "iliqlik" davrida 19-o'zbek tog'-otliq diviziyasining "xalq dushmani", deya nohaq qamoqqa olingen bir qator taniqli harbiy kadrlar ishlari ham qayta tergovga jalg qilinadi. Ularga asosan 2-diviziyaning assosiy namoyandalari

Mirkomil Mirsharopov, Yunus Narimonov, Mirsaid Shomirboyev, Sobir Rahimov, Burxon Hamroqulovlar to'g'risida "ularning siyosiy ish faoliyatlarini qanday baholaysiz?" degan savol berilgan. Mazkur jarayonda M. Shomirboyev to'g'risida uning hamkasblari faqat ijobjiy fikrlarni bildirgan.

#### RASHIDOV NOMIGA...

Namangan shahri, Namangan ko'chasi, 2-uy, 1-xonadonda yashagan Yusufxo'ja Mamadxo'jayev 1955-yil 15-yanvar sanasi bilan O'zbekiston hukumati rahbari Sharof Rashidov nomiga ariza yozib, jiyani Mirsaid Shomirboyevning taqdiri haqida so'raydi. Shundan so'ng Mirsaid

olmas edi", deydi. O'zining 1937-yilda bergen guvohliklarini to'liq rad etadi va o'sha qog'ozlarni o'qib chiqishga ruxsat berishmaganini aytadi.

#### 20 YIL O'TIB...

Turmush o'rtog'i Malika Abdujabborova 1956-yil 16-iyunda qayta so'roqda Mirsaid Shomirboyev



## 1910-yilda

Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahrida tug'ilgan va o'zbek diviziyasida faoliyat yuritgan Ma'ruf Tursunov:

"Shomirboyev namunali, talabchan va faol qo'mondon, yaxshi otliq", deya ko'rsatma bergen. 19-o'zbek tog'-otliq diviziyasida 1936-yilning iyulidan oktabrigacha prokuror bo'lib ishlagan Jalilov Mirtesha Sodiqovich so'roq jarayonida Mirsaid Shomirboyevga: "Namunali qo'mondon, uning bo'linmasi eng yaxshi bo'linmalardan. Shomirboyevning o'zi ham intizomli, yetuk, o'z ishini puxta biladigan qo'mondon. Uni halol, bilimli kishi sifatida bilaman", deb ko'rsatma bergen edi.

Shomirboyevning ishi ham qayta ko'rib chiqishga topshiriladi. Qayta so'roqlarda ko'plab haqiqatlar bo'y ko'rsatadi. Jumladan, 1956-yil 18-fevral kuni so'roqda 1929-1938-yillar 19-o'zbek tog'-otliq diviziyasi polk komissari bo'lgan Hikmat Zakiryayev (1907-y.t.):

"1937-yil Shomirboyev Dadaxon 10 yoshlar chamasi 41-polk maktabida tarbiyalanar edi. Bir kuni Bolta Komilov menga bir tojikcha yozilgan qog'oz tutib, Dadaxonga imzolatishimni buyurdi. Men maxsus bo'lim topshirig'i degani uchun u bilan gaplashib imzolatdim, lekin uni urmadim", deydi.

#### MIRSAID O'Z ISHINING USTASI EDI

1956-yil 20-fevral kuni sobiq 19-o'zbek tog'-otliq o'zbek diviziyasi komandiri Xolmuhammedov Ahmed Ahmedovich (1898-y.t.) so'roqda:

"Men 1925-yili Qizil armiyaga kirib, 1925-1926-yillar komandir, 1926-1931-yillarda pulemyot rota komandiri edim. Mirsaid Shomirboyev haqiqiy avtoritet askar, o'ta abjir, harakatchan, o'z ishining ustasi edi. U ajoyib sportchi, askarlarga haqiqiy ustoz va talabchan rahbar edi. Ammo bu hech kimga botmas edi. Avval 41-otliq polkda so'ng 42-otliq polk maktabi rahbari bo'ldi. Selivanovni 19-o'zbek tog'-otliq diviziyasi milliy harbiy zabitlarining birortasi bilan solishtirib bo'lmashdi. Selivanov doimo asabiy, xodimlariga nisbatan qo'pol va haqoratli so'zlarni ko'p ishlatardi. U tashabbuslar har jihatdan to'liq o'ziniki bo'lishini talab etar edi-yu, ammo askarlarga istagini ham yetkazib bera

bilan birga kechgan hayoti davrida uni hamisha halol, to'g'riso'z, vatanparvar inson bo'lganini ta'kidlaydi. Ukasi Dadaxonni Bolta Komilov nomli kimsa qo'rqitib, aksiga qarshi ko'rsatmaga imzo chektirganini va buni u keyinchalik Namanganga kelgach, onasiga aytganini yozadi. Avval Dadaxon Shomirboyevning o'zi, keyin onasi ham bir necha marta sho'roning yuqori idoralariga arizalar yozgani, ammo hech qanday natija bo'limganini aytadi. Shundan so'ng Dadaxon Shomirboyev o'z ixtiyori bilan frontga ketib, oxirgi xatinini 1941-yili Belarus frontidan yozganini, keyin undan nom-nishon bo'Imaganini yozib ketadi. Mirsaid Shomirboyev ham boshqa safdoshlari qatorida 1957-yil 20-iyulda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan oqlangan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek zamonaliviy armiyasining ilk qaldirg'ochlari bo'lgan milliy harbiy kadrlar qizil saltanat tomonidan nohaq ayblanib, jismonan yo'q qilindi. Mustaqillik yillarida ularning qutlug' nomlari tiklandi. Shubhasiz, ularning barchasi qandaydir qizil saltanatga xizmat qilish uchun emas, aksincha millat va Vatan himoyasi uchun jonini qurban qilish maqsadida qo'liga qurol tutib, harbiy bo'lishni niyat qilgan edilar. Bugungi kunda o'sib-ulg'ayib kelayotgan yosh harbiylarimiz ularning sharafligi hayot yo'llarini bilishi, xotiralarni e'zozlashi maqsadga muvofiqdir.

**"Harbiy jadidlar xotirasini barhayot" kitobidan.**



# JANGOVAR QO'SHIQLAR - JASORAT BONGI

*Ko'kka bo'yalar mardonavor  
jangovar qo'shiq,  
Yuraklarga g'urur berar  
uning sadosi.  
Yigit-qizlar jasoratdan  
kuylaydi jo'shib,  
Dil qasriga nur ularashar  
ohang ziyosi.*

Inson kuy-qo'shiqqa oshno xilqatdir. Sehri ohanglar, dilda yaqin nazmiy satrlar uning tuyg'ulariga ta'sir etmay golmaydi. Ayniqsa, jangovar qo'shiqlar ko'kka o'rlaganda Vatan qiyofasi ko'z oldingizda namoyon bo'ladi. Uning muhofazasida qad rostlagan, ona yurtning bir kaft tuprog'i uchun jonini fido qilishga tayyor Vatan himoyachilarining sharaflı xizmati dilingizda faxr uyg'otadi.

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, harbiy xizmatchilarining milliy va jangovar ruhini mustahkamlashga xizmat qiladigan bunday qo'shiqlar qadriyatimizga aylanmog'i shart. Shu sabab ham har yili O'zbekiston Qurolli Kuchlari kuch tuzilmalari o'ttasida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!" harbiy-vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlar tanlovi yangi qo'shiqlar, yangi ovozlarni kashf etib kelmoqda.

Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va madaniyat departamenti bo'lib o'tgan "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!" harbiy-vatanparvarlik qo'shiqlari ko'rik-tanlovi

bu yil ham o'z qahramonlar va go'zal xonishlarini yuzaga chiqardi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi, Madaniyat vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentliklarining "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!" harbiy-

vatanparvarlik qo'shiqlari ko'rik-tanlovini o'tkazish bo'yicha qo'shma qarori asosida O'zbekiston Qurolli Kuchlari kuch tuzilmalari tarkibidagi professional va havaskor ijodkorlar sifatida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar va yoshlar katta sahnada o'z mahoratlarini namoyish etishdi.

Qatnashchilarning saf, estrada va lirik qo'shiqlar yo'naliishlari bo'yicha har bir chiqishi nufuzli hay'at a'zolari tomonidan shaffof tarzda baholab borildi. Quvonarlisi, ko'rik-tanlovda ishtiroy etgan ellikdan ziyod ijodkor o'z qo'shiqlarini jonli tarzda ijro etib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi. Shuningdek, qo'shiqlarga mos tarzda





ishlangan vatanparvarlik ruhidagi roliklar qalblarga o'zgacha hayajon baxsh etdi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, joriy yildagi ko'rlik-tanlovga har yilidan-da yuqori saviyada tayyorgarlik ko'rilmanni tadbir davomida o'z so'zini aytdi. Yangi she'rlarga bastalangan yangi qo'shiqlar, milliy musiqalarimiz jarangini o'zida jo etgan zamonaviy ohanglar, jarangdor jonli ijro... Bularning barchasi tomoshabinlarga ko'tarinki kayfiyat baxsh etdi.

Albatta, qo'shiq yaralishida shoir so'zi, unga mos tarzda bastalangan musiqa va yurakdan kuylangan ijroning o'rni muhim. Vatan haqidagi qo'shiqlar jarangi dilingizga o'zgacha shukuh bag'ishlaydi. Shoir ta'riflaganidek:

*Bobolarim sajda etgan mehrobim,  
Momolarim ko'zga surgan tavobim,  
Jannat ko'shkidagi nuri oftobim,  
Ajdoddlardan ulug' merosim – Vatan.*

Darhaqiqat, ona yurt madh etilgan she'r-u qo'shiqlar qalbingizga o'zgacha tuyg'ular baxsh etadi, uning hurligi va tinchligini asrashga chorlaydi.

Vatan tinchligi va osoyishtaligining qalqoni bo'l mish harbiy xizmatchilar ning zahmatli va sharafla xizmati, matonat va jasoratiga bag'ishlangan kuy-qo'shiqlar esa qalblarga g'urur bag'ishlaydi. Vatan himoyasi farzandlar uchun oliy qadriyat, ulug' burch ekanini anglatib turadi:

*Biz tinchlik yo'lida metin qoyamiz,  
Vatanni asramoq ulug' g'oyamiz.  
Ona el, hurliging jon qadar tengsiz,  
Senga qalqon bo'lmoq sharaf biz uchun!*

Ko'rik-tanlovida ijro etilgan har bir qo'shiq mazmun-mohiyati, o'ziga xos qirralari bilan ajralib turdi. Ularni bir-biridan yuqori qo'yish mushkul. Ammo yo'naliishlar bo'yicha o'rinnlar yuzaga chiqishi shart. Shunga ko'ra, hay'at a'zolari tomonidan belgilangan odilona qarorga asosan, o'rinalar e'lon qilindi.

Professional ijodkorlar o'rtasidagi saf qo'shiqlari yo'naliishi bo'yicha 1-o'rinni Qurolli Kuchlar Markazi ashula va raqs ansambl a'zolari serjant Sherzod Imomberdiyev, Qurolli Kuchlar xizmatchilarini Umid Haydaraliyev va Avaz Usmonov egalladi. Ikkinchisi o'ringa Mudofaa vazirligi Maxsus avariya tiklash boshqarmasi "Impuls" harbiy ansamblini xonandalari munosib topildi. Ikkinchisi o'rin DXX Chegara qo'shinlari ashula va raqs ansamblini xonandasini Xurshid Inogamovga nasib etdi. Uchinchi o'rinni Favqulodda vaziyatlar vazirligi harbiy orkestri a'zosi kichik serjant Solixo'ja Jiyanova egalladi.

boshqarmasi "Impuls" harbiy ansamblini xonandalari loyiq topildi. Uchinchi o'rinni Qurolli Kuchlar Markazi ashula va raqs ansamblining vakili guruhi band etdi.

Professional ijodkorlar o'rtasidagi estrada qo'shiqlari yo'naliishi bo'yicha 1-o'rinni Ichki ishlari vazirligi ashula va raqs ansamblini a'zolari serjant Zokirjon To'ychiyev, safdorlar Farhod Qambarov, Nurali Shukurullayev, Sherali Bekmurodov va Nargiza Ma'qulovaga nasib etdi. Ikkinchisi o'rinni Qurolli Kuchlar Markazi ashula va raqs ansamblining vakili guruhi egalladi. Uchinchi o'rinni esa Milliy gvardiya Jamoat xavfsizligi universiteti vakili katta leytenant Shuhratjon Muhammadjonov qo'lga kiritdi.

Professional ijodkorlar o'rtasidagi lirik qo'shiqlari yo'naliishi bo'yicha 1-o'ringa Mudofaa vazirligi Maxsus avariya tiklash boshqarmasi "Impuls" harbiy ansamblini xonandalari munosib topildi. Ikkinchisi o'rin DXX Chegara qo'shinlari ashula va raqs ansamblini xonandasini Xurshid Inogamovga nasib etdi. Uchinchi o'rinni Favqulodda vaziyatlar vazirligi harbiy orkestri a'zosi kichik serjant Solixo'ja Jiyanova egalladi.

Havaskor ijodkorlar o'rtasidagi saf

qo'shiqlari yo'naliishi bo'yicha 1-o'rinni Sharqiy harbiy okrug harbiy qism harbiy orkestri a'zosi serjant Oybek Elchiyevga nasib etdi. Ikkinchisi o'rinni Toshkent harbiy okrugi Chirchiq garnizoni Ma'naviyat va ma'rifat markazi harbiy orkestri vakili serjant Oybek Ro'ziyev egalladi. Uchinchi o'ringa esa Markazi harbiy okrug harbiy qism harbiy orkestri a'zosi kichik serjant Ismoil Jumayev loyiq topildi.

Havaskor ijodkorlar o'rtasidagi estrada qo'shiqlari yo'naliishi bo'yicha 1-o'rinni Toshkent harbiy okrugi Chirchiq garnizoni Ma'naviyat va ma'rifat markazi harbiy orkestri vakili kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askarlar – Farid Olimov, Latifjon Butaboyev va Jasur Komiljonov egalladi. Ikkinchisi o'rin Sharqiy harbiy okrug vakili kichik serjant Qayumjon Mahkamovga nasib etdi. Uchinchi o'ringa esa DXX Chegara qo'shinlari muddatli harbiy xizmatchisi Jasur Mahmudov munosib topildi.

Havaskor ijodkorlar o'rtasidagi lirik qo'shiqlari yo'naliishi bo'yicha 1-o'rinni g'olibligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi harbiy orkestri kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Shahriyorbek Ostimdekova nasib etdi. Ikkinchisi o'rinni Ichki ishlari vazirligi ixtisoslashtirilgan maktab internati o'quvchisi Muzaffar Qayumov qo'lga kiritdi. Uchinchi o'rinni esa DXX Chegara qo'shinlari ashula va raqs ansamblini vakili serjant Orif Yusufov egalladi.

Bir so'z bilan aytganda, "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!" harbiy-vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlar tanlovi ona yurtga muhabbat tuyg'usini baxsh etadigan go'zal qo'shiqlarni tomoshabinlarga taqdim etdi. Umid qilamizki, bu qo'shiqlar xalqimizga manzur bo'ladi.

G'olib va sovindorlar diplom va pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"



Onalik baxti, otalik g'ururi. Ota-onu bu ikki tuyg'uni qachon his etishi mumkin. Atrofdagilar uchun qanday holatda namoyon bo'ladi? Ishonch bilan aytish kerakki, har qanday ota-onu uchun farzandlarining el koriga kamarbasta bo'ladigan darajada tarbiya olishini, unib-o'sganini ko'rishdek baxt va g'urur bo'lmasa kerak. Ayniqsa, egniga harbiy libos kiyib, Vatan himoyachisi bo'lganini ko'rgandagi baxt va g'ururni tasvirlash qiyin.



# Askar ota-onalarini sharaflaymiz

Milliy armiyamizni shakllantirish jarayonida "Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!" degan ezgu tamoyil asosida ulkan ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bugungi kunda fuqarolarimiz armiyaning har tomonlama yordami va ko'magini hayotining deyarli barcha sohalarida amalda his etayotgani e'tiborga molik. Shulardan biri "Askar ota-onalarini sharaflaymiz" loyihasidir. Muddatli harbiy xizmat burchini o'tagan va o'tayotgan minglab askarlar hamda ularning ota-

onalari, yaqinlari uchun hayotidagi eng hayajonli onlarni taqdim qiluvchi loyiha. Bu loyiha orqali tashkillashtirilayotgan tadbirlar tufayli respublikamizning turli hududlarida istiqomat qilayotgan hamyurtlarimiz farzandlarining askarlik hayoti bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Endilikda bu tadbir "Askar ota-onalarini sharaflaymiz" nomi ostida o'tkaziladi va Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanida joylashgan harbiy qism bu an'anani boshlab berdi.

Erta tongdan harbiy qismiga kirish darvozasi oldi bayramona ko'renish oldi. Qo'llarida guldsta tutgan olti nafar muddatli harbiy xizmatchi hayajon, quvonch, sog'inch hislari bilan o'z oila a'zolarini kutib olishga tayyor turibdi. Bu yigitlar uchun Mudofaa vazirligi Havo hujumidan mudofaa qo'shnlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi, Toshkent viloyati hokimiyati hamkorligida oilasi bilan ko'rishish imkoniyati yaratib berildi. "Yangi O'zbekiston

armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida o'tkazilgan tadbiriga Jamoatchilik kengashi raisi, O'zbekiston xalq shoiri Iqboljon Mirzaaliyev, kengash a'zosi O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonov, Qurolliy Kuchlar faxriylari, davlat va jamaat tashkilotlari vakillari taklif etildi.

Barcha yig'ilganlar uchun hayajonli bo'lgan tadbir

Jizzax, Samarqand, Farg'ona viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidan kelgan ota-onalarini askar farzandlari ehtirom bilan kutib olishidan boshlandi. Harbiy qism mas'ul ofitserlari mehmonlarni yo'l-yo'lakay – Latifbek Saxobov, Baxadir Urazov, Umidjon Ro'ziyev, Bahodirjon Alijonov, Boburxon Meliqo'ziyev hamda Shohjahon To'ychiyevning ota-onalariga xizmat jarayonida muddatli harbiy xizmatchilar egallaydigan bilimlar haqida gapirib berishdi. Askarlar yotoqxonasi bilan tanishish jarayonida bu yerda yaratilgan sharoitlar barchanining diqqat markazida bo'ldi. Shuningdek, mehmonlar harbiy qism musiqa to'garagi, tibbiyot punkti, kutubxona va oshxonadagi sharoitlar bilan yaqindan tanishtirildi.

Tadbirning madaniy-ma'rifiy qismida esa Iqboljon Mirzaaliyevning onalarini ulug'lovchi she'ri, Isajon Sultonovning milliy armiyamiz uchun bergan ta'rifি barchaga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. Muddatli harbiy xizmatchilar – Baxadir Urazov va Omon Sodiqboyev tomonidan maromiga yetkazib ijro etilgan "Maysaraxon" ariyasi, "Maftun bo'ldim" qo'shig'i yig'ilganlar olqishiga sazovor bo'ldi. Tadbir yakunida farzandlarining namunalni xizmatlari uchun ota-onalarga tantanali tarzda tashakkurnomalar topshirildi. Harbiy qism oshxonasida esa viloyatlardan va Qoraqalpog'iston Respublikasidan kelgan mehmonlar uchun tushlik dasturxonasi yozildi. Ularning farzandlari bilan birgalikda bir dasturxon atrofida a'lo kayfiyatda o'tirishini ko'rib havasimiz keldi. Askar ota-onalari shu kuni xuddi o'z uyida, o'z xonardonida o'tirganday edi go'yo. Haqiqatda ham xuddi shunday. Chunki O'zbekiston hammamizning umumiyligi uymiz. Uni ko'z qorachig'idek qo'riqlash barchamizning burchimizdir.





**“Chinakam xalq mafkurasini, millatning eng muqaddas orzu-intilishlarini faqat uning Bosh hujjati – Konstitutsiyasida to‘liq ifoda etish mumkin”.**

Shavkat MIRZIYOYEV

# KONSTITUTSIYANI QANCHALIK YAXSHI BILSANGIZ, huquqingizni shunchalik yaxshi bilasiz



Har bir mustaqil davlatning asosiy Bosh qomusi – Konstitutsiyasi mazkur mamlakatning xalqaro maydonidagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotini ko‘rsatib beruvchi mezon hisoblanadi. Aynan Konstitutsiyada davlatning xalq oldidagi burchi, vazifasi va kafolatlari belgilab qo‘yiladi. Biz “huquqiy demokratik davlat”da yashayotgan ekanmiz, davlat ichidagi barcha, jamiki soha va ijtimoiy yo‘nalishlar Konstitutsiyamizda o‘z o‘rnini topishi zarur deb hisoblaymiz.

- Konstitutsiyani butkul yangidan qabul qilish;
- Asosiy qonunni yangi tahrirda qabul qilish;
- Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritish.

Ayni yuqorida uch tamoyil asosida davrlar o‘tgan sayin har bir mustaqil deb tan olingan davlat ijtimoiy, huquqiy va siyosiy o‘zgarishlar negizida o‘zining asosiy qomusini, Konstitutsiyasini isloh qilib boradi. Tan olib aytishimiz joizki, garchi, mustaqillikdan so‘ng hozirgi kunga qadar Konstitutsiyamizga bir necha bor o‘zgartirishlarkiritgan bo‘lsakda, yangi qonunlar qabul qilinishiga ehtiyojlar borligi va keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotganligi sababli ham Bosh qomusimizni isloh qiladigan davr shakllanib bo‘lgan edi.

Y A N G I T A H R I R D A G I konstitutsiyaviy qonun loyihasi davomida umumxalq muhokamalarida jami 222 ming 715 dan ortiq taklif berilgan edi. Ularning 60 foizi yoshlar tomonidan taqdim etilgan. Takliflarning 56 foizi erkaklar, 40 foizi ayollar tomonidan yuborilgan. 4 foizining esa shaxsi ochiqlanmagan. Shaxsan o‘zim ham yangi tahrirda qabul qilingan

Konstitutsiyaning takliflar qabul qilingan davri mobaynida undagi “ta’lim” va “o‘qituvchi maqomi”ga bag‘ishlangan moddalarni qo‘llab-quvvatlab, o‘z qarashlarimi bildirgan edim.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasini tayyorlash jarayonida 400 dan ortiq xalqaro tan olingan hujjatlar va 190 ga yaqin dunyoning eng rivojlangan davlatlari Konstitutsiyalari puxta tahlil etilib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz xalqaro ekspert va mutaxassislar tomonidan xalqaro huquqning umume’tirof etilgan barcha qoidalarini o‘zida mujassam etgan hujjat sifatida yuqori baholangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning moddalari avvalgi 128 tadan 155 taga ko‘paygani, 128 ta moddadan 91 tasiga konseptual o‘zgartirishlar kiritilganligi, normalari esa 275 tadan 434 taga oshgani milliy tuzugimizning 65 foiz matni xalqimiz takliflari asosida yangilanganini ko‘rsatadi. Inson huquq va erkinliklariga oid qoidalar uch yarim baravarga ko‘paydi.

MAZKUR KONSTITUTSIYAVIY QONUN loyihasining qabul qilinishidagi eng katta yangiliklardan biri sifatida quyidagi bir qator lavozimlarda ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ushbu lavozimga saylanishi (*tayinlanishi*) mumkin emasligining joriy etilishi bo‘ldi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi:

- Qonunchilik palatasi Spikeri;
- Senat Raisi;
- O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti;
- Viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining raisi;
- Hokim;
- Oliy sudning raisi va rais o‘rinbosari;
- Sudyalar oliy kengashining raisi va rais o‘rinbosari;
- Markaziy saylov komissiyasining raisi;
- Bosh prokuror lavozimlari.

Biz tanlagan yo‘l huquqiy demokratik tamoyillarga asoslangan ekan, Bosh qomusimiz ham, albatta xalqaro huquq normalari asosida har bir fuqaromizni nafaqat davlat ichida, balki tashqarisida ham, avvalo o‘z fuqarolarining manfaatlarini himoya qilgan asosda

yoritilishi lozim. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilinishidan oldin konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuv chog‘ida sud-huquq tizimida ham, avvalo xalq manfaatini himoya qilish masalalarini ilgari surgani barchamizning yodimizda. “Gumon qilinuvchining huquqlari ushlangan dastlabki vaqtdayoq xavf ostida qoladi. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida ko‘plab davlatlarning konstitutsiya va qonunlarida hamda inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda aks etgan “Miranda qoidasi”ni qo’llash lozim. Ya’ni shaxsni ushlash chog‘ida uning huquqlari va nima sababdan ushlangani sodda tilda tushuntirilishi shart. Ana shu qoidani Konstitutsiyamizda muhrlab qo‘yishning vaqt-soati keldi, deb o‘ylayman. Bundan tashqari, “Xabeas korpus” institutini rivojlantirish zarur. Ya’ni shaxs sudning qaroriga qadar ko‘pi bilan qirq sakkiz soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emas. Agar sud tomonidan shaxsni hibsga olish yoki unga nisbatan boshqacha turdagil ozodlikni cheklash haqida qaror belgilangan muddatda qabul qilinmasa, bunday shaxsni darhol ozod qilish kerakligi haqidagi normani ham Konstitutsiyada aks ettirishimiz zarur” deb ta’kidlagan edi.

ASLIDA, Milliy tuzugimizni ishlashi va barcha amal qilishi uchun ham, avvalo uni har birimiz bilishimiz shart! O‘z haq-huquqini bilmagan va amaldagi qonunlari ishlashi ustidan nazoratini o‘rnata olmagan har qaysi jamiyatda qonun buzilishlari, jinoyatchilik va poraxo‘rlik avj olishi tabiiy holat. Ta’lim tizimida ishlagan davrimda o‘quvchilarimga va hamkasb ustozlarga milliy tuzugimiz bo‘lmish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘qishni, mazmunan tushunishni doimo targ‘ib qilar edim. Va bugun ham xalqimizga, keng jamoatchilikka o‘z haq-huquqlarini yaxshiroq o‘rganishlarini, qonun buzilgan holatlarida esa loqayd bo‘lmasdan adolatli jamiyat yaratish yo‘lida yanada birlashib harakat qilishlarini so‘rab qolaman!

Zavqibek MAHMUDOV,  
Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

# KURSANTLARNI TOLERANTLIK ruhida tarbiyalash

Tolerantlik insoniyat tarixida o'zga din, millatlarga nisbatan ehtiromli munosabatda bo'lish mezoni sifatida shakllanib kelgan. Bu juda keng tushuncha sifatida Markazi Osiyoda rivojlangan tarixiy, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar tizimida o'zini to'laroq namoyon etadi.



Bo'lajak ofitserlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir. Tabiiyki, bu jarayonda asarlari tolerantlik tadqiqi, tahlili va talqiniga bag'ishlangan Abu Lays as-Samarqandiy kabi sharq mutafakkirlarining qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda ilgari surilgan mehr-muruvvat kechirmlilik kabi insoniy tolerantlik sifatlari hozirgi kun yoshlari tarbiyasida muhim o'rinn tutmoqda.

Bo'lajak ofitserlar o'rtasida millatlararo tolerantlikni shakllantirishning uslubiy asosi sifatida biz bir nechta yondashuvlarni aniqlaymiz: tizimli, ekologik va faoliyatga asoslangan.

Tizimli yondashuv V. Afanasev, N. Kuzmina, E. Yudin va boshqalarining asarlarida ko'rib chiqilgan. Tizimli yondashuv bo'lajak ofitserlar o'rtasida millatlararo tolerantlikni shakllantirish, uning tarkibiy yaxlitligi va yaxlit mazmuni haqidagi ma'lumot olish, tizimni tashkil etuvchi aloqalar va munosabatlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Bo'lajak ofitserlar o'rtasida millatlararo tolerantlikni shakllantirishda tizimli yondashuvdan foydalanish quydigilarni, ya'ni obyektni yaxlit mavjudlik (tizim) sifatida o'rganish, berilgan tizimdagagi elementlarning ma'lum bir to'plamini aniqlash, tizim elementlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish, tizimning tartibiligidini ta'minlovchi tizimni tashkil etuvchi ulanishlarni aniqlash, o'rganish obyektlari va tashqi muhit o'rtasidagi munosabatlarni ajratib ko'rsatish, tizimning ishlash va rivojlanish jarayonini o'rganishi o'z ichiga oladi.

Millatlararo tolerantlikni shakllantirish modelining muhim tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq tamoyillardir: yaxlitlik prinsipi; fanlararo integratsiya tamoyili; ong va faoliyat prinsipi. Bu tamoyillarning mazmuni quydigicha:

yaxlitlik tamoyili kasbiy tayyorgarlikni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning (o'quv jarayoni, xizmat faoliyati va tarbiyaviy ish) birligini bildiradi.

Fanlararo integratsiya tamoyili ta'lim fanlarining (tarix, Vatan tarixi, dinshunoslik, madaniyat shunoslik, kasb o'dob-axloqi va xizmat ko'rsatish odobi, siyosatshunoslik) birligini nazarda tutadi.

Ong va faoliyat prinsipi shaxsning bilim olishdagi faol rolini aks ettiradi.

Shaxs faoliyati nafaqat oddiy yodlash va diqqatni jalb qilishga, balki yangi bilimlarni o'zlashtirishga, faktlarni tadqiq qilishga va hokazolarga qaratilgan bo'lishi kerak.

Modelning eng muhim tarkibiy qismlari maqsadli, uslubiy kabi bloklar bilan ifodalanadi.

Modelning maqsadli bloki tadqiqotning maqsadi va vazifalarini o'z ichiga olib, ularning yechimi oliy harbiy ta'lim o'quv yurtlari bo'lajak ofitserlari o'rtasida millatlararo tolerantlikni shakllantirishga yordam beradi.

Vazifalar quyidagilardan iborat:

- umuminsoniy va milliy etnomadaniy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarash va dunyoqarashni shakllantirish;
- tolerantlik, millatlararo tolerantlik, turli etnik guruhlarning madaniyati va tarixi, turli xalqlarning etnik xususiyatlari haqidagi bilimlar tizimini shakllantirish;

- ijobiy millatlararo o'zaro munosabatlar va madaniyatlararo muloqotni o'tkazish ko'nikmalarini rivojlanish;
- millatlararo o'zaro munosabatlarda o'zini o'zi tahlil qilish va adekvat o'zini o'zi hurmat qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Xulosa qilib shuni aytamizki, vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan yoshlar tolerantlik, o'zgalarni hurmat qilish, mas'uliyatni sezish kabi xususiyatlarga ega bo'ladi.

**Marhabo NAZARALIYEVA,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi dotsenti**

## Hay'at yig'ilishi



# Kelgusi vazifalar belgilandi

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida Bosh prokuror o'rinos – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori B. Kudratxodjayev raisligida navbatdagi hay'at yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Videokonferens-aloqa tarzida o'tgan muloqotda mahkama va barcha hududi harbiy prokuratura xodimlari ishtirok etdi.

Jarayonda harbiy prokuratura organlari tomonidan joriy yilning o'tgan davrida yangi tahrirdagi Konstitutsiya, boshqa qonun va qonunosti hujjatlari asosida amalga oshirilgan ishlar natijalari ko'rib chiqildi.

So'ngra Qurolli Kuchlarda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash, harbiy xizmatchilarining huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyatchilik va huquqbarliklarning oldini olish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, energetika xavfsizligi borasidagi va faoliyatga doir boshqa masalalar sarhisob qilindi.

Yakunida tegishli qaror qabul qilinib, kelgusidagi aniq vazifalar belgilab olindi.

**Adliya kapitani Mahmud ARTIKOV,  
O'zbekiston Harbiy prokuraturasi  
bo'lim katta harbiy prokurori**

## Tuyg'u

# Vatanparvarlik – millatni birlashtiruvchi kuch

Har bir insonning qalbida o'z ona yurti, tug'ilib o'sgan zaminiga bo'lgan chuqr muhabbat, sadoqat tuyg'usi mujassam. Bu tuyg'u insonni Vatan uchun jonfido bo'lishga, uni himoyalash va rivojlanishi uchun finimsiz mehnat qilishga undaydi. Aynan shu tuyg'u – vatanparvarlik deb ataladi.

Bugungi dunyo zamonaviy va globallashuv jarayonida yangi yutuqlarga erishayotgan bir paytda, vatanparvarlik masalasi har qachongidan ham dolzarbroq bo'lib qoldi. Vatanparvarlik, avvalo, o'z milliy qadriyatlarini anglash, ona tilini sevish va yurt kelajagi uchun mas'uliyatni his etishdan boshlanadi. Ushbu maqolada vatanparvarlikning mazmun-mohiyati, tarixiy ildizlari va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati haqida so'z yuritamiz.

### Tarixdan saboq: vatanparvarlikning ildizlari

Vatanparvarlik qadim zamonlardan buyon millat va davlat barqarorligi uchun asosiy omillardan bira sifatida xizmat qilib kelgan. O'tmishta xalqimizning ulug' qahramonlari – Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabilari Vatan himoyasi yo'lida barchaga

namuna bo'la olganlar. Bugungi kunda bu tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyati bizning milliy g'ururimiz va vatanparvarlik saboqlarimizning asosi hisoblanadi.

### Vatanparvarlikni shakllantirishda tarbiyaning ahamiyati

Vatanparvarlik tuyg'usi avvalambor oila muhitida, so'ngra ta'lim-tarbiya muassasalarida shakllanadi. Milliy tariximiz, qadriyatlarimiz va buyuk ajodolarimiz hayoti yosh avlodda o'zlikni anglash va milliy faxr tuyg'usini uyg'otadi.

Bugungi davrda vatanparvarlik faqat urush maydonida qahramonlik qilish bilan cheklanmaydi. U zamonaviy mehnat qahramonligi, Vatan taraqqiyoti yo'lida qilinayotgan fidokorona mehnat, ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi yutuqlar orqali namoyon bo'ladi. Demak, yurtimizni yanada rivojlanish, xalqaro maydonda o'z o'nrimizni mustahkamlash – har bir fuqaro zimmasidagi mas'uliyatdir.

### Xulosa

Vatanparvarlik – bu insonni yuksaltiruvchi, millatni birlashtiruvchi va rivojlanish sari yetaklovchi ulug' tuyg'udir. Har birimiz o'z yurtimizga muhabbat va sadoqat bilan munosabatda bo'liшимiz, uning kelajagi uchun javobgarlikni his qilishimiz zarur. Zero faqat vatanparvarlik ruhidagi jamiyatgina buyuk maqsadlarga erishishi mumkin.

**Kapitan Odiljon JO'RAYEV**

Vatan ruhi

# TEMUR SHAXSIDAGI IJOBIY FAZILATLAR

Yuksak ma'naviyatli inson umumxalq manfaatini ko'zlab, davlat va jamiyat uchun o'z taqdirini Vatan taqdiri bilan bog'laydi. Mamlakat kuch-qudratini oshirishga, mustahkamlashga bor kuchi, imkoniyati va bilimini sarf qiladi. Davlatchilimiz tarixida ana shunday insonlardan biri Amir Temur edi.

Sohibqiron shaxsida teranlik, axloqiy nafosat, kamtarlik, do'stlik, mehr-muruvvatilik, jasorat va mardlik, ishbilarmonlik va tadbirdorlik kabi ko'plab fazilatlar mujassam edi. Uning bu xislatlari butun umri davomida amal qilib kelgan "Kuch - adolatda" shiorida namoyon. Ibn Arabshohning quyidagi so'zlarida ham uning yuksak axloqini ko'rishimiz mumkin: "Uning majlislarida uyatsiz so'zlar, qon to'kish, asir olish, ayollar sha'niga haqorat gap bo'lmasdi".

Sarkardaning ilm-fan va madaniyatga bergen katta e'tibori Markazi Osiyoda o'ziga xos Uyg'onish davriga zamin yaratdi. U doim olimlarni hurmatlar, ular bilan xalqlar tarixi (*u tarixni yaxshi ko'rар va bilar edi*) haqida suhbat qurar edi. Riyoziyot, me'morchilik, falakiyat, adapbiyat, tarix, musiqa kabi sohalar ravnaqiga katta e'tibor berib, sohibi hunarlar bilan qilgan muloqotlari haqida fransuz olimi Lyangle shunday yozadi: "Temur olimlarga serilifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofilliğini ko'rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste'dodli bo'lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko'pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Chunki Temur bu sohalarga g'amxo'rlik qilishga asosiy e'tiborini berardi".

Tarixchi Arabshoh: "Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayid shariflarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamo va fozillarga to'la izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan tamom muqaddam

ko'rар edi. Ularning har birining o'z martabasiga qo'yib, izzat-ikromi va hurmatini unga ochiq izhor qilardi. Ularga nisbatan o'z muruvvati bisotini yozar edi, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan mazmuni bahs yuritar edi, bahsida insof-u himmat bo'lar edi. Uning lutfi qahri ichiga qorilgan bo'lib, qo'sligi ezguligi orasiga qo'shilgan edi".

Amir Temur tarixini chucherroq o'rgansak, u qachonki biror bir davlatda podshoh xalqqa zulm qilsa, din va axloqda buzg'unchilok vujudga kelgan taqdirda shu davlat podshohiga davlatida tartib vaadolat o'rnatishti talab etgan holda maktub yo'llagan. Agar zalolatga podshoh berilgan, tanbeh va o'gitlarni qabul qilmagan taqdirda shu davlatga qo'shin tortib borgan. Bo'ysunmagan shaharlarni kuch bilan qo'lga kiritgan chog'ida shahar aholisi orasidan olim, shoir-u hunarmand ahlini ajratib olar, ularni xohlagan joylariga ko'chib borib yashashlari uchun imkoniyat yaratib berardi. Amir Temur poklik asosida o'z sultanatini boshqarib kelgan edi va mana shunday pok qalbli, yuksak ma'naviyatli kishilarni davlat boshqaruviga tanlagan.

"Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirdim ...ulamo bilan suhbatda pok niyatli toza qalbli kishilarga talpidim... Buzuqi va og'zi shaloq g'iybatchi odamlarni majlisimga yo'latmadim", deb ta'kidlaydi.

Amir Temurning oddiy xalq taqdidi, uning baxt-saodati uchun qayg'urishi, har qanday davlat hududida qonun ustuvorligini o'rnatishi uning ma'naviy xislatlarining yana bir ko'rinishidir. "Dunyoniy yarmini oldim, sultanatimning u chetidan bu chetigacha biror bolakay bir lagan tilla ko'tarib o'tadigan bo'lsa, bir donasiga ham zarar yetmaydigan tabib-intizom o'rnatdim", degan edi sohibqiron. Buyuk ipak yo'lining Amir Temur sultanatiga tegishli qismini juda qattiq nazoratga oladi. U savdogarlar xavfsizligini to'liq ta'minlagan, ularga erkin, osoyishta, xavf-xatarsiz savdo yo'li tashkil etib bergen



edi. Darvesh va qalandarlarga homiy edi. Ana shu salohiyatlasiyosati, fazilatli xislatlari Amir Temurga ulkan zafarlar keltirdi.

O'z millatining dardlariga darmon bo'lish tuyg'usi bilan yashagan Amir Temur donishmanligiga xos fazilatlar ichida xayr-ehson va mehr-muruvvatlikka xos homiylik tushunchalari doimo yetakchilik qilib keldi. U o'z sultanatining vorislari qoldirgan pand-u nasihatlarida, "Adolat va insof bilan Tangrini yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim. Gunohkorga rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlari bilan odamlar ko'nglidan joy oldim", degan edi.

Amir Temur islamning hamma e'tiqodlariga, marosimlariga qattiq ryoja qilar, toat-ibodatni kanda qilmas, hatto jang oldidan ham boshqalar bilan birga namoz o'qish, kechalari yakka o'zi toat-ibodat qilish, Qur'onдан suralar tilovat qilish bilan uzluksiz shug'ullanar edi. Bu nafaqat jangchilarda, oddiy xalqda ham Temurga nisbatan hurmat, ishonch va mardlik, jangovarlik bag'ishlar edi.

M. ISAYEVA,  
dotsent

Xalq va armiya



## FESTIVAL



Termiz shahrida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda 14-yanvar – Vatan himoyachilarini kuni munosabati bilan "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida harbiy-vatanparvarlik festivali tashkil etildi.


Bayramona ruhda boshlangan festival avvalida, dastlab harbiy-vatanparvarlik karvoni harbiy orkestr sadolari ostida shahar ko'chalari bo'ylab harakatlandi. Jarangdor ohanglar-u, Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar hech bir insonni befarq qoldirmadi. Ayniqsa, bu navolar yoshlar qalbida ona Vatanga muhabbat, sadoqat, iftixon tuyg'ularini yanada anglatdi.

Tadbir Termiz shahridagi ko'ngilochar muz saroyida davom etdi. Harbiy orkestr jamoasining kuy-qo'shiqlari, davlat ramzi bo'lgan bayrog'imizning maydon bo'ylab keng quloch yoyishi ishtirokchilarni zavqlantiribgina qolmay, ularga yurtimizning tinchligi, farovonligini qalban his etish, har bir insonning farzandlik burchi ekanini yana bir bor yodga soldi.

Shuningdek, faxriy qorovulning ko'rgazmali chiqishlarini tadbir ishtirokchilari katta qiziqish bilan kuzatdi. Festival doirasida milliy armiyamizda yaratilgan shart-sharoitlar, bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan islohotlar, harbiy xizmatchilarga berilayotgan imtiyozlar to'g'risida atroficha ma'lumot berildi.

**Mayor Alisher ERGASHEV**  
Termiz garnizoni

# TEZKORLIK, MUSTAHKAM IRODA



“

Qo'ljangi boshqa sport turlaridan umuman farq qiladi. Bunda sportchi qo'l va oyoqni baravariga ishlata olish mahoratiga ega bo'lishi shart. Qolaversa, o'zi tomon yo'llangan har bir zarbaga chap berishi, raqibning og'riqli ushlab turishlariga bardosh bera olishi ham kerak. Ana shundagina g'alaba nashidasini tuyadi.



Poytaxtimizdag  
Yunusobod sport  
majmuasida Vatan  
tinchligini asrab-avaylash  
yo'lida qahramonlarcha halok  
bo'lgan harbiy xizmatchilar  
hamda xodimlar xotirasiga  
bag'ishlangan xotira turniri bo'lib  
o'tdi.

Unda Mudofaa, Ichki  
ishlar, Favqulodda vaziyatlar  
vazirliklari, O'zbekiston  
Respublikasi Prezidenti  
Davlat xavfsizlik xizmati,  
Davlat bojxona qo'mitasi,  
Milliy gvardiya hamda  
Davlat xavfsizlik xizmatining  
mahoratlari harbiy sportchilar  
birinchilik uchun o'zar  
kurash olib bordi.

Ta'kidlash kerakki,  
ushbu chempionat kim  
nimaga qodir, kim haqiqiy  
mahorat va matonat egasi  
ekanini yuzaga chiqarish  
imkonini bergani bilan  
ham ahamiyatli bo'ldi.  
Saralash bosqichlarida  
yuqori natijalarni qayd  
etib, finalga yetib kelgan  
qatnashchilar raqiblari  
tomon tezkor va ketma-  
ket aniq zarbalar  
seriyasini yo'lladi.

– Ushbu sport  
turida qo'l va oyoq  
birgalikda tez harakat  
qilishi kerak, – deydi  
Janubi-g'arbiy maxsus  
harbiy okrugdagi

# VA JASURLIK

harbiy qismalarning birida xizmat qilib kelayotgan kichik serjant Husniddin Ro'ziyev. – Albatta, bunda sportchi himoyani ham esdan chiqarmasligi lozim. O'tkazilgan championatda 73 kg vazn toifasida tatamiga tushdim. Ochig'i, raqiblarim ham mahoratlari, yaxshi tayyorgarlik ko'rgan harbiy sportchilar edi. Ularni mag'lub etishning o'zi bo'lmadi. Ustoz-murabbiylardan o'rgangan va o'zlashtirgan bilimlарim, qolaversa, usul va uslublardan o'z o'mida foydalandim. Umuman olganda, sportda tayyorgarlikdan tashqari, omad ham kerak bo'ladi. Ayrim holatlarda kiprik qoqishga ham ulgurmay, mag'lubiyatga uchrashingiz mumkin. Shu bois hech qachon raqibimning harakatlarni past baholamayman. Chunki hammasini soniyalar ichida hal qilish mumkin. Qo'ljangi ana shunday sport turlaridan biri sanaladi. Zo'r bo'lsangiz ham sizdan o'tadigan, texnik harakatlari o'ta yuqori sportchi, albatta chiqadi. Ammo Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 33 yilligi hamda 14-yanvar – Vatan himoyachilar kuni munosabati bilan tashkil etilgan mazkur musobaqaqadagi bitta oltin bugun meniki bo'ldi.

Haqiqatan ham qo'ljangi sport turida jarohat olish ehtimoli juda yuqori. Shuning uchun

murabbiylar maydonga tushgan shogirdlariga "Raqibingning nayrangiga aldanma!", "Zudlik bilan himoyaga o't!", "Chiqib ket!", deya ta'kidlaydi.

– Championatda sakkiz nafar shogirdim bilan qatnashdik, – deydi Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazining oliy toifadagi trener-o'qituvchisi Asadulla O'rino. – G'oliblik uchun kechgan kurashda shogirdlarim bildirilgan ishonchni munosib tarzda oqlay oldi. Tayyorgarlik jarayonlariga keladigan bo'lsak, biz har qanday musobaqaga alohida hozirlik ko'ramiz. Ishlab chiqilgan maxsus dasturga ko'ra, mashqlarni osondan murakkablik tamoyiliga asosan olib boramiz. Qachon raqibga zarba berish kerak, qay ko'rinishda himoyaga o'tish zarur, zarba o'tkazib yuborgan hollarda qayta o'zini tutib olish holatlari birma-bir o'rgatiladi. Aytishim kerakki, shogirdlarim orasida tezkorigi yuqori, irodasi mustahkam, o'ziga ishongan, qat'iyatli, hamisha g'alabaga intiluvchanlari juda ko'p. Chunki bu xislatlar jamlangan kishida qo'rquv bo'lmaydi, raqibiga imkoniyat qoldirmaydi. Ana shu zayl iste'dodlarni kashf etib kelmoqdamiz. Ehtimol, ana shuning uchun ham aksariyat musobaqalarda yuqori o'rnlarni egallayotgandirmiz.

Harbiy xizmatchilar o'ttasida o'tkazilayotgan bu kabi musobaqalar esa kelgusida qo'shinlarning jangovar shayligini oshirish, sardorlarni yetishtirishda muhim o'rinn tutadi. Ayni shu jihatdan biz qatnashchilar mazkur championat davomida nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki chidamlilik sifatlari-yu, tezkor va chaqqon harakatlana olish imkoniyatlarini ham namoyon etdik.

– Har bir sportchining o'z uslubi bo'ladi, – deydi Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi sportchisi kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Azizbek Rajabov.

– Ana shu uslubni o'zlashtirish uchun esa yillard davomida shug'ullanish va o'rganish kerak. O'tkazilgan mazkur Xotira turnirida kurash olib borgan har bir qatnashchi raqibini



mag'lub etishda o'ziga xos taktikalardan foydalandi. Men jangga kirishishdan oldin, albatta qarama-qarshi keladigan sportchining harakatlarni sinchkovlik bilan kuzataman va uni o'rganaman. Qaysi vaziyatlarda qanday usulni qo'llayapti? Yaqin masofada jangga kirishganda oyog'in ko'p ishlatafdimi yoki qo'linimi? Uzoqlashganda-chi? Bu savollarga obdan javob izlayman. Kerakli ma'lumotlarga ega bo'lgach, maydonda o'z usulini o'ziga qo'llayman. Ko'p hollarda ball hisobidan ham g'alaba qozonish mumkin. Bu kamdan kam qo'l keladi. Biroq ochiq jangda kim tezkor bo'lsa, vaziyatni to'g'ri baholay olsa, aniq va kuchli zarba berolsa, ana shu sportchi uchun g'oliblik qo'liga kiritildi degani. Bugungi jang men uchun navbatdagi g'alaba nashidasini surish imkonini berdi. Finalgacha bir nechta raqiblarim bilan jang qildim. Aslida ularning har biri g'olib bo'lishga munosib edi. Finalda esa Davlat xavfsizlik xizmati xizmatchisi, besh karra jahon championi bilan kurashdim. Jarayonlarda kim nimaga qodir ekani yuzaga chiqdi. O'z imkoniyatlarimizni ham sinovdan o'tkazib oldik. Biroq asosiy vaqt tugashiga bir necha soniya qolganida raqibimni og'ritish usuli bilan yengdim va karyeramda yangi sahifani ochdim.

Tatamida metin irodasini, kuchli qat'iyatliligidini, o'ziga bo'lgan yuksak ishonchini ko'rsatayotgan sportchilarning har bir harakati, qo'llagan usuli, oyoq va qo'l bilan berilgan zarbalari hakamlar hay'ati tomonidan haqqoniy va xolisona baholab borildi.

Albatta, musobaqada muntazam shug'ullangan, tajribali sportchilar hamisha zafar quchadi. Ushbu bahslarda ham xuddi shunday bo'idi. Turnirda erkaklar jamoasi sakkizta, ayollar jamoasi esa oltita vazn toifasida o'zarob bahs olib bordi. O'z vazn toifasida tengsiz deb topilgan sportchilar esa shohsupanining yuqori pog'onasidan joy oldi.

Xalqimizda "Mardlar maydonda sinaladi" degan naql bor. Qo'ljangi bo'yicha o'tkazilgan ushbu championatda ham ishtirotchilarning mahorati va tajribasi yana bir bor sinovdan o'tdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, umumjamoja hisobida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati jamoasi birinchi o'rinni qo'liga kirdi. Ikkinchisi o'rinn esa Mudofaa vazirligi jamoasiga nasib etdi. Uchinchi o'rinn Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya jamoalari tomonidan band etildi.

G'olib va sovindorlar faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.





## ENG KATTA EKOLOGIK MUAMMOSSI

Bugun moda va kiyim-kechakka bo’lgan talab misli ko’rilmagan sur’atda o’smoqda. Natijada, tekstil sanoati global uglerod chiqindilarining 10 foizini tashkil etib, davrimizning eng katta ekologik muammolaridan biriga aylanmoqda.



sifat talabiga javob bermagan mahsulotlar, xillas barchasi chiqindi poligonlarida tog’ bo’lib uyilyapti. Bu “tog”larning aksariyati qismi biologik parchalanmaydigan kiyim va to’qimachilik chiqindilarini ekanini hisobga olsak, ekologiyaga misli ko’rilmagan darajada zarar keltirayotganimiz ma’lum bo’ladi. Polyester, neylon, poliamid, akril va boshqa sintetik materiallar kabi kiyim-kechakdagagi mikroplastmassalar esa tuproqqa va yaqin atrofdagi suv manbalariga singib, ularni ham ishdan chiqaradi.

**YANA BIR JIHATI SHUNDAKI,** muammo tobora kengayib borayotgan moda biznesi bilan yanada kuchaymoqda. Bunda kompaniyalarning so’nggi va eng yangi tendensiyalarga javob berish uchun past sifatli kiyimlarni arzon va tez ishlab chiqarishga tayanishi muammoning yanada xavfli tus olishiga turki beryapti. Bu ishlab chiqarilgan va tashlab yuborilgan kiyimlar miqdorini keskin oshirmoqda.

### ISHLATILGAN KIYIMLAR KERAKMI?

To’qimachilik sanoatining atrof-muhitga ta’sirini bartaraf etish uchun Yevropa Ittifoqi aylanma iqtisodiyotga o’tishni tezlashtirishni xohlaydi. 2020-yil mart oyida Yevropa komissiyasi innovatsiyalarni rag’batlantirish va sohada qayta foydalishni ko’paytirishga qaratilgan Yevroittifoq to’qimachilik strategiyasini o’z ichiga olgan yangi aylanma iqtisodiyot harakat rejasini qabul qilgan edi.

Odamlarning keraksiz kiyimlardan xalos bo’lish usuli ham muammo ko’lamini kengaytirmoqda. Boisi ko’pchilik ularni hadya qilgandan ko’ra, uloqtirishni afzal bilmoqda. Yevropa Ittifoqida 1996-yildan beri

naxrlarning keskin pasayishi natijasida, kishi boshiga sotib olinadigan kiyim-kechak miqdori 40 foizga oshdi. Bu esa kiyimning xizmat qilish muddatini qisqartirdi. Yevropaliklar har yili 26 kilogrammga yaqin to’qimachilik mahsulotlaridan foydalanmoqda va ulardan 11 kilogrammga yaqinini tashlab yubormoqdalar.

### ASLIDA KERAKSIZ, AMMO

kiyishga yaroqli kiyimlarni boshqalarga berish orqali ehtiyojmandlarga ko’mak beradiganlar ham bor. Bu, ayniqsa Germaniyada an’anaga aylanib bormoqda va muhojirlarga pul tejashta juda katta yordam bo’lmoqda. Ishlatilgan kiyimlar Yevropa Ittifoqidan tashqariga eksport qilinishi ham muammoning yana bir yechimidir. Lekin asosiy miqdor (87 foizi) yoqib yuboriladi yoki poligonga tashlanadi. Texnologiyaning yetarli emasligi tufayli dunyo miqyosida kiyim-kechaklarning bir foizdan kamrog’igina qayta ishlanadi xolos.

### FUTBOLKA UCHUN 2 700 LITR SUV

To’qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun paxta va boshqa tolalarni yetishtirishda haddan tashqari ko’p SUV kerak bo’ladi. Hisob-kitoblarga ko’ra, 2015-yilda jahon to’qimachilik va tikuvchilik sanoati 79 milliard kub metr SUV iste’mol qilgan bo’lsa, 2017-yilda Yevropa Ittifoqining butun iqtisodiyotining ehtiyoji 266 mlrd kub metrni tashkil etgan. Bir dona paxtali futbolka tayyorlash uchun 2 700 litr toza SUV kerak bo’lishini va bu bir insonning ikki yarim yillik ehtiyojini qondirishi mumkinligini hisobga olsak, raqamlar talablarimiz kabi o’sishda davom etishi tayin.

Dunyo miqyosida toza SUV ifloslanishining qariyb 20 foizi to’qimachilik mahsulotlarini bo’yash va pardozlash oqibatida yuzaga keladi. Sintetikani yuvish ortidan yiliga yarim million tonna mikrotolalar okeanga chiqariladi. Bu esa atrof-muhitni zararlayotgan birlamchi mikroplastmassalarning 35 foizini tashkil qiladi.

Xallas, “moda sanoati” qancha chiqindilar yaratayotganini yanada aniqroq tushunish uchun quyidagi statistik ma’lumotlarga ahamiyat qaratamiz:

- dunyo bo’ylab tashlab ketilgan kiyimlarning 57 foizi chiqindisi poligonlariga yuboriladi;
- kiyim-kechak chiqindilarining 25 foizi yoqib yuboriladi;
- kiyim-kechak ishlab chiqarish har yili atmosferaga 2 milliard tonna issiqxona gazini chiqaradi, 42 million tonna plastik chiqindilar hosil qiladi;
- kiyim ishlab chiqarishda matoning 15 foizi isrof bo’ladi;
- poligonlarning 5 foizi to’qimachilik chiqindilari hamda kiyim-kechaklar bilan to’lmoqda, ularning parchalanishi uchun esa 200 yil kerak.

**SHU O’RINDA** dunyodagi eng ko’p moda chiqindilarini ishlab chiqaradigan davlatlar yettiligini ham keltirib o’tamiz: Xitoy – 20, AQSh – 17, Hindiston – 7,8 million tonna, Italiya – 465, Germaniya – 391, Fransiya – 210, Buyuk Britaniya – 206 ming 456 tonna.

### XO’SHE, NIMA QILA OLAMIZ?

Dunyo bo’ylab har soniyada bir yoki mashina to’la to’qimachilik chiqindilari yoqib yuboriladi yoki poligonga tashlanadi. Afsuski, biz ham ana shu jarayonda ishtiroy etib, tabiatning ifloslanishiga “hissa” qo’shamoqdamiz. Buning oldini olish va imkon qadar kamroq kiyimlarni chiqindiga tashlash uchun hali ham kech emas. Avvalo, juda zarur bo’lmasa, ortiqcha kiyim sotib olishdan tiyilish, moda ortidan quvmaslik lozim. Bu shaxsiy mablag’imizni tejashga ham yordam beradi. Shuningdek, o’lchami to’g’ri kelmay qolgan, kiyilmayotgan, ammo foydalishga yaroqli bo’lgan kiyimlarni boshqalarga taqdim etish an’anasini kuchaytirish zarur. Masalan, mahalladagi ehtiyojmand oilalarga berish orqali ham ularga ko’maklashish, ham savob olish, eng muhimmi, garderobingizni bo’shatishingiz mumkin. Ayniqsa, bolalar kiyimlarni tez kichik kelib qoladi, ularni keyinga farzandingiz uchun saqlab qo’yish yoki boshqalarga taqdim qilish ancha foydalidir.

**UNUTMANG**, siz isrof qilayotgan, keraksiz deb hisoblagan kiyimni yaratish uchun ko’p mehnat, eng muhimmi hammaning birdekk haqqi bo’lgan qimmatbaho, qayta tiklanmas resurslar sarflangan.

BMTning Atrof-muhit bo’yicha dasturi ma’lumotlariga ko’ra, faqat kiyim-kechak ishlab chiqarishning o’zi aviatsiya va transport sohalari jamlanganidan ko’ra ko’proq issiqxona gazlari emissiyasini atmosferaga chiqarmoqda. Global chiqindisi suvining qariyb **20 foizi** ushbu tarmoqdagi ishlab chiqarish jarayonlariga to’g’ri keladi. Ya’ni to’qimachilik mahsulotlarini bo’yashda 93 milliard kub metr SUV sarflanadi va chiqitga chiqadi. Bundan tashqari, dunyoda har yili kamida 92 million tonna to’qimachilik chiqindilari hosil bo’ladi va bu raqam 2030-yilga borib, yiliga 134 million tonnagacha oshishi kutilmoqda.

Shu o’rinda ushbu muammoning ildizi qayerda, degan savol tug’iladi. Bugun moda shu qadar odamlarni o’ziga asir etmoqdaki, har mavsumda yuzlab yangi liboslar yaratilmoqda va tinimsiz sotilyapti. Ko’rinishi jihatdan yangidek, lekin “moda”si eskirganlari shunchaki chiqindixonaga ravona bo’lyapti. Qolaversa, ishlab chiqarish jarayonida ham andaza olishdan qolgan qiyqimlar, tola ishlab chiqarishda

**Dildora MAVLONOVA**

Islohotlar samarasi

Musobaqa

# Vatanparvarlik



## SINFI BARPO ETILDI

Mudofaa vazirligiga qarashli Navoiy shahrida joylashgan harbiy qismiga biriktirilgan Prezident mакtabida ta'lim olayotgan yosh avlodni ona Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida kamol toptirish, ular qalbiga yurt mustaqilligini himoya qilish sharafli burch ekanini singdirish maqsadida harbiy-vatanparvarlik sinfi barpo etildi va tantanali ravishda foydalanishga topshirildi.

O'quv sinfi qo'mondonlik harbiy xizmatchilari tomonidan yangicha ko'rinishga keltirilib, moddiy bazasi yangilandi. Ajodolarimiz qahramonligi hamda harbiy sohaga doir ko'plab ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan mazkur sinf endilikda o'quvchi-yoshlar bilan gayjum bo'ladi.

Davlat va jamoat tashkiloti vakillari hamda nuroniylar ishtirok etgan tadbirda so'zga chiqqanlar, mamlakatimizda ertamiz egalari bo'lgan yoshlar uchun yaratib berilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlar haqida alohida to'xtalib o'tishdi.

Shu kuni harbiy qism komandiri va maktab direktori tomonidan ikki tomonloma memorandum imzolandi.

Tadbir so'ngida mehmonlar Prezident mакtabida yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishtirildi.



# MIRZO BOBUR IZIDAN



Buyuk sarkarda va ajodolarimizning boy merosini, ibratlari hayoti va ijtimoiy faoliyatini chuqr o'rgatish orqali harbiy jamoalarning milliy va jangovar ruhini oshirish maqsadida Farg'ona viloyatida joylashgan harbiy qismda "Zahiriddin Muhammad Bobur izidan" ko'rik-tanloving qo'shilma bosqichi bo'lib o'tdi.



Muhammad Bobur – Boburiylar imperiyasi asoschisi" shartlari bo'yicha kuch sinashdi. Jarayonlar hakamlar hay'ati tomonidan adolatli hamda shaffof baholanib borildi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, Bobur izdoshlari terma jamoasi (Farg'ona viloyati) 1-o'rinni, Boburiylar terma jamoasi (Andijon viloyati) 2-o'rinni, Bobur avlodi terma jamoasi (Namangan viloyati) 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Tanlov g'olib bo'lgan jamoa bellashuvning keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi hamda qo'mondonlik tomonidan diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shahnoza SULTONOVA, TOQQQ matbuot xizmati

Xalqaro hamkorlik

# Muhim vazifalar belgilandi



Rossiya Federatsiyasida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Armiya, aviatsiya va flotga ko'maklashuvchi ko'ngillilar jamiyatiga (DOSAAF) xalqaro ittifoqining IV syezdi bo'lib o'tdi. Moskva shahri mezbonlik qilgan ushbu tadbirda Rossiya, Belarus, Qirg'iziston va O'zbekistonning mudofaaga ko'maklashuvchi tashkilotlari rahbarlari ishtirok etdi.

Syezdda joriy yil davomida xalqaro ittifoq tomonidan yoshlarni mudofaaga tayyorlash, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish hamda turli kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisobotlar eshitildi.

Shuningdek, tashkiliy masalalar ko'rib, MDH Armiya, aviatsiya va flotga ko'maklashuvchi ko'ngillilar jamiyatiga xalqaro ittifoqining markaziy kengashi saylandi.

Delegatlar navbatdagi plenumni kelgusi yili O'zbekistonda o'tkazish masalasini ko'rib chiqdi va Ikkinchiji jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 80 yilligi hamda Armiya, aviatsiya va flotga ko'maklashuvchi ko'ngillilar jamiyatining 100 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha asosiy tadbirlar rejasini tasdiqladi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Armiya, aviatsiya va flotga ko'maklashuvchi ko'ngillilar jamiyatiga



(DOSAAF) xalqaro ittifoqiga 1992-yil sentabr oyida Toshkent shahrida asos solingen bo'lib, hozirda unga Rossiya, Belarus, Armaniston, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston a'zodir. 2024-yilning sentabr oyida Qozog'iston ushbu ittifoqdan o'z xohishiga binoan chiqib ketdi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati



# YANGI YILINGIZ

## MUBORAK BO'LSIN!

“Avtomotohavaskorlar” ko‘ngilli jamiyati Buxoro viloyati kengashi jamoasi va uning joylarda faoliyat ko‘rsatayotgan nodavlat ta’lim muassasalari xodimlari siz, aziz yurtdoshlarimizni, shuningdek mamlakatimiz mudofaa qudratini yanada oshirish, uning tinchligi, osoyishtaligi va chegaralarimiz daxlsizligini ta’minalash yo‘lida fidokorona xizmat qilayotgan barcha harbiylarni hamda “Avtomotohavaskorlar” ko‘ngilli jamiyati tizimidagi hamkasblarini, ularning oila a’zolarini kirib kelayotgan

2025-yil bilan chin dildan muborakbod etadi.

Yangi yilda ona Vatanimiz osmoni musaffo, osoyishtaligi barqaror, bunyodkor xalqimiz sog‘ va omon bo‘lsin!

Yangi yilingiz qutlug‘ bo‘lsin, aziz yurtdoshlar!



# BAYRAM

## TABRIGI!

“Orzu” – osh tuzi” mas’uliyati cheklangan jamiyati jamoasi barcha yurtdoshlarimizni, mamlakatimiz tinchligi uchun sabot bilan xizmat qilayotgan yurt posbonlarini, el-yurt ravnaqi yo‘lida fidokorona mehnat qilayotgan barcha tadbirkorlarni hamda ularning oila a’zolarini

Yangi yil bayrami bilan samimiyl tabriklaydi.

Muhtaram vatandoshlar! 2025-yilda mamlakat ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo‘lidagi samarali ishlaringizda ulkan zafarlar yor bo‘lsin!

Barchangizga tinchlik-omonlik, baxt-u saodat, xonadoningizga fayz-u baraka tilaymiz.



# An'analar bardavom maskan

Chirchiq uchuvchilar shaharchasida joylashgan Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligiga qarashli harbiy qism tashkil etilganining 55 yilligi tantanali nishonlandi.

Unda Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondoni, nafaqadagi faxriy uchuvchilar hamda bir qator jamoat tashkiloti vakillari ishtirok etdi.

Ushbu tadbirda so'z olganlar harbiy qismning shonli tarixi hamda uzoq yillar xizmat qilgan mahoratli uchuvchilarning Qurolli Kuchlar rivojiga qo'shgan ulkan hissasini e'tirof etib, hozirgi kunda ustoz-shogird an'analari yangi bosqichga ko'tarilganiga bevosita to'xtalib o'tishdi.

- Ushbu harbiy qism 1969-yil 31-dekabr kuni alohida eskadriliya sifatida tashkil etilgan bo'lib, sharafli jangovar tarixga ega, – deydi podpolkovnik Artur Vafayev.
- Davlatimiz rahbarining harbiy soha va harbiy uchuvchilarga bo'lgan yuqori e'tibori natijasida Qurolli Kuchlarimiz zamonaviy samolyot, vertolyot va boshqa jangovar



texnikalar bilan jihozlanmoqda. Mustaqillik yillarda fidokorona va mardonavor xizmatlari uchun harbiy qismning 40 nafardan ortiq ofitser va serjanti orden va medallar bilan taqdirlandi.

Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasiда mohir uchuvchi va tajribali mutaxassis-faxriylarning о’рни beqiyos. Harbiy aviatsiyaga kirib kelayotgan yosh avlodning uchish xavfsizligi va kasbiy mahorat sirlarini о’ргатишда ularga kuch-quvvat tilayman.

Tadbir so'ngida xizmat faoliyatida erishgan yutuqlari uchun bir guruh faxriyalar va harbiy xizmatchilar esdalik nishonlar va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. Tashkil etilgan konsert dasturlari ishtirokchilarga bayramona kayfiyat ulashdi.

**Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmaydi**

# Sovq'alar ulashildi

qo'mondonligi tashabbusi bilan tashkil etilgan bayram tadbiri davolanayotgan bolalarning ko'ngliga taskin berish, ularning hayotiga oz bo'lsa-da, xursandchilik olib kirishga bag'ishlandi. Ayniqsa, ertak qahramonlaridan iborat teatrlashtirilgan tomosha bemor va ularga qarovchi yaqinlariga xush kayfiyat uplashdi.

Bezatilgan archa atrofida she'r ayтиб, Qorбобо va Qорqиздан sovg'a олган мург'ак qalblarning qувончини та'riflashning imkonи yo'q. Hатто og'ir jarrohlik amалийотини o'tказган bemor bolajonlar xonalariga бирмабир kirган Qорбобо ularga kutilmagan yorqin kayfiyat va tabassum ulashdi. Mittivoylar bir lahza bo'lса-da, o'zida kechayotgan tushkunlik kayfiyatini unutgan bo'lса, ne ajab?



**Sherzod SHARIPOV, "Vatanparvar"**

**Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida**

# SAMARALI MEHNAT – MUAYYAN NATIJAH



Yakunlanayotgan yilda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashi va uning tasarrufidagi shahar va tumanlar o'quv sport-texnika klublarida yoshlami harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etish, shuningdek ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash borasida tizimli ishlar amalga oshirildi.

Ayniqsa, ma'naviyat va harbiy-vatanparvarlik targ'iboti yo'naliishi bo'yicha davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ham jismonan, ham ma'nан sog'lom, har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sportni umumxalq harakatiga aylantirish, uyushmagan yoshlarni sport seksiyasi va to'garaklariga jalb qilish borasida muayyan natijalarga erishildi.

- Bugungi kunda “Vatanparvar” tashkilotining viloyat kengashi tasarrufida 2 ta shahar, 7 ta tuman o’quv sport-texnika klubi hamda viloyat texnik va amaliy sport turlari markazi faoliyat ko’rsatmoqda, - deydi viloyat kengashi raisini Ulug’bek Imamqulov. Ta’kidlash joizki, o’z poyoniga yetayotgan 2024-yilda mavjud o’quv tashkilotlarining moddiy negizini takomillashtirish maqsadida nazariyi va o’quv-amaliy xonalari innovatsion texnologiyalar asosida ta’mirlandi. Avtodormlar ham zamonaviyl talablar asosida yangidan barpo etildi. Albatta, bu sa’y-harakatlar natijasida malakali haydovchilar tayyorlash sifati oshirildi. Tashkilot tizimidagi o’quv muassasalarida “A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE” hamda “D” toifali haydovchilar, traktorchilar, shuningdek “Texnik xizmat ko’rsatish mutaxassislari” tayyorlanmoqda.

Bundan tashqari, joriy yil uchun asosiy tashkiliy tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli ijrosini ta’minlash maqsadida ham bir qator ishlar hajariildi. Jumladan, tashkilot faoliyatini

to'g'risida tasavvurni shakllantirish maqsadida o'quv sport-teknika klublarida "Vatanparvar" tashkiloti - mening tanlovim!" shiori ostida ochiq eshkilar kuni tadbirlari o'tkazildi

Viloyatda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish va ommalashtirish maqsadida 24 ta to'garak va seksiya tashkil etilgan. Bularda o'n nafar sport murabbiyi faoliyat ko'satmoqda. 264 nafar shug'ullanuvchining 203 nafari o'g'il bolalar, 61 nafarin qizlar tashkil etadi. Ular sportning "Havo miltig"idan o'q otish". "Yozgi biatlon", "Duatlon", "Triatlon", "Modelsozlik", "Raketamodel", "Aviamodel", "Erkin uchuvchi aviamodel", "Karting", "Avtosport", "Parashyut", "Harbiy amaliy ko'pkurash" turlari bo'yicha muntazam shug'ullanib borishadi. Tuman, viloyat, respublika hamda xalqaro miqyosida o'tkazilayotgan musobaqlarda faol ishtirot etgan sirdaryolik sportchilar sovrinli o'rnlarni qo'lga kiritmoqda.

Xulosa o'rnila aytishimiz mumkinki, o'z poyoniga yetayotgan yilda erishgan muvaffaqiyatlarimiz bir talay. Ularni eslash, bu haqda quvonch bilan so'zlash qalbimizga g'urur bag'ishlaydi. Ayni paytda bu zafarlar bizni yanada yangi dovonlarni zabit etishga, kirib kelayotgan Yangi yilda yanada ulkanroq g'alabalarni qo'lga kiritishga undaydi.

Akbar ALLAMURODOV



O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida bir guruh ijodkorlar uyushma a'zoligiga qabul qilindi hamda yosh qalamkashlarning "Birinchi kitobim" loyihasi doirasida chop etilgan kitoblari taqdimoti bo'lib o'tdi.

# HAMKASBIMIZ

## - O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi!



Ustoz adiblar, adabiyot ixlosmandlari jam bo'lgan tadbirda Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid davlatimiz tomonidan yoshlarga qaratilayotgan e'tibor va yaratilayotgan imkoniyatlarga to'xtaldi. Shundan so'ng uyushma a'zoligiga qabul qilingan 9 nafar ijodkorga tantanali tarzda guvohnomalar topshirildi.

Tadbirda uyushma raisi o'rinnbosari Farida Afro'z, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti direktori Botir Ergashev ijod bo'stonida o'z aytar so'ziga ega bo'lgan yangi a'zolarning yangi nasriy va nazmiy asarlar yaratib, millat ravnaqi, o'zbek adabiyoti uchun bir umr munosib hissa qo'shajagini e'tirof etdi. Quvonarlisi, ular orasida Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" birlashgan

tahririysi katta muxbir katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov ham a'zolik guvohnomasini qabul qilib oldi.

– "Dehqoni so'z" nomli ilk badiiy-publisistik kitobim 2020-yilda Yozuvchilar uyushmasining "Birinchi kitobim" loyihasi doirasida 10 ming nusxada chop etilgan, – deydi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov. – Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan respublika yosh ijodkorlarining an'anaviy Zomin seminari bir necha yillardan beri ijodga ishtiyoyqmand yoshlarning iqtidorini kashf qilishda, ularni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Men ham Zomin seminarida qatnashib, ustozlarning beminnat o'gitlarini oлganman. Bugungi hayajonimning chegarasi yo'q. Mening ijodiy ishlaringma ijobji tavsiyanoma bergan

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalistlar Salim Ashur, Hulkar To'ymanova, Ma'suma Ahmedova, uyushmaning Jizzax viloyati bo'limi rahbari Mehribon Abdurahmonova va boshqa ustozlarimdan minnatdorman. Bir guruh ijodkorlar orasida qo'llimga olganim ushbu hujjat zimmamga katta mas'uliyat yuklab, yangi publisistik asarlar yozish uchun turki bo'ladi.

Tadbirda mualliflar yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash borasida Yozuvchilar uyushmasida amalga oshirilayotgan ishlar uchun minnatdorligini bildirdi. San'atkorlarning kuy-qo'shiqlari kechaga yanada zavq ulashdi.

TAHRIRIYAT

Uch avlod uchrashuvi

Ma'rifiy davra

# TARIX VA JASORAT

## sabog'i

Har bir millat o'z tarixi, boy merosi va jasoratlari qahramonlari bilan faxrlanadi. Ayniqsa, bu kabi qadriyatlar yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim o'r'in tutadi.

Yangiyo'l tumanidagi 4-umumta'lum maktabda Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlariga qarashli harbiy qism tashabbusi bilan tashkil etilgan uch avlod uchrashuvi ana shu ezgu maqsadga qaratildi.

Tadbirda Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zosi Erkin Rahmonqulov, Yangiyo'l tumanı hokimligi hamda shahar Nuroniylar uyushmasi vakillari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Alisher Otabayev, kiboksing bo'yicha jahon championi Muhammadali Toshturg'unov va boshqa mehmonlar ishtirok etdi. Uchrashuvning asosiy maqsadi – harbiy xizmatchilar, nuroniylar va yoshlar o'rtasida muloqot o'rnatish, ularni umumiy maqsadlar atrofida birlashtirish va milliy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmatni yanada kuchaytirish edi.

Uchrashuv davomida nuroniylar o'z hayotiy tajribalari bilan o'rtoqlashdi. Ayniqsa, ularning jasorat va matonat haqidagi hayotiy hikoyalari barchada katta taassurot qoldirdi. Eng muhim, bu voqealar nafaqat tarixiy ahamiyatga egaligi bilan, balki yoshlarning ma'nnaviy kamolotida muhim o'r'in tutishi bilan ham qimmatlidir.

R. OCHILOV



Tahririyat kengashi:  
general-major Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.  
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.  
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:  
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:  
kotibiyat: 55 511-25-91  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo'lim: 55 511-25-90

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov  
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov  
Musahih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-5877  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 33 522 nusxa  
Bosishga topshirish vaqt: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiha "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.  
Bahosi: Kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,  
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri,  
Olmazer tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririysi bilan bog'lanish uchun telegram bot



## SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI



[t.me/mv\\_vatanparvar\\_uz](https://t.me/mv_vatanparvar_uz)  
[t.me/mudofaavazirligi](https://t.me/mudofaavazirligi)



[www.mv-vatanparvar.uz](http://www.mv-vatanparvar.uz)  
[www.mudofaa.uz](http://www.mudofaa.uz)



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



[www.youtube.com/c/UzArmiya](https://www.youtube.com/c/UzArmiya)